



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY  
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA  
O'RGAATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

# O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK MONITORINGI VA TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH METODIKASI




PISA

TIMSS



TOSHKENT-2023







O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA  
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY  
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA  
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK  
MONITORINGI VA TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH  
METODIKASI



M. Ergasheva



Toshkent - 2023

Mazkur metodik qo'llanma xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi sinov topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, o'qituvchi, metodist va o'quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini, shuningdek, o'quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tabiiy fan yo'nalishlari bo'yicha savodxonligini rivojlantirish, o'qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish uchun xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan "Testing" platformasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

**Muallif:**

**M.Ergasheva** – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, Uzluksiz kasbiy ta'lim kafedrasи mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchilar:**

**Sh.Abdullaeva** – Nizomiy nomidagi TDPU Tillar fakulteti dekani, p.f.d., professor.

**G.Otamurodov** – Raqamli ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot bo'limi yetakchi ilmiy xodimi.

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti Ilmiy Kengashining 2023-yil 2-son bayonnomasи bilan tasdiqlangan.

## **MUNDARIJA**

---

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I. PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI.....</b>	<b>9</b>
1.1. PISA o'qish savodxonligi bo'yicha natijalar.....	13
1.2. PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik natijalari.....	29
1.3. PISA topshiriqlaridan namunalar.....	45
1.4. PISA topshiriqlarining baholash mezonlari.....	71
1.5. PISA tadqiqoti natijalari xulosalari.....	101
<b>II. TIMSS XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI.....</b>	<b>105</b>
2.1. TIMSS tabiiy fanlar tadqiqotlari natijalari.....	107
2.2. TIMSS topshiriqlaridan namunalar.....	137
2.3. TIMSS tadqiqotlari natijalari xulosalari.....	149
<b>XULOSA.....</b>	<b>151</b>
<b>TAKLIFLAR.....</b>	<b>155</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>157</b>



## KIRISH

---

"O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilab qo'yilgan.

Ushbu maqsad yo'lida, o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA, matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha PIRLS, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha xalqaro o'rganish tendensiyasi TIMSS, maktablardagita'limmuhitini o'rganish bo'yicha TALIS tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalarining ishtirokini ta'minlash bo'yicha qator vazifalar belgilandi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS **xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishslash ko'nikmasini shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyaning shuningdek, o'quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha savodxonligini rivojlantirish, o'qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan STesting elektron platformasi (<https://stesting.uz>) ishlab chiqildi.**

**STesting** – bu o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) doirasidagi topshiriqlar bilan ishslash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim bo'lib, videoqo'llanmalar, turli xalqaro nashrlar hamda test-topshiriqlarni o'z ichiga olgan innovatsion platformadir.

STesting elektron platformasi – o'quvchilarni ilm-fan yutuqlaridan

boxabar a inson salomatligi bilan bog'liq muammolarni hal etuvchi qarorlarni mustaqil qabul qilish, egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, tabiat va jamiyat hodisalariga nisbatan munosabat bildira olish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni hayotga tayyorlash va zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ko'makchi vazifasini o'taydi.

Ushbu platformada **1449** ta test-topshiriqlari, **103** ta mediakurslar, **40** ta kimyo va biologiya fanlaridan malaka oshirish media kurslari o'rinni olgan. Shulardan, PISA xalqaro baholash tadqiqotiga oid **30** ta blok va **489** ta savollar bo'lsa, TIMSS xalqaro baholash tadqiqotiga oid esa **8** ta fanga tegishli **583** ta nazorat savollar joyi olgan va PIRLS xalqaro baholash tadqiqotiga oid **30** ta blokdan iborat **377** ta savollar platformaga joylashtirilgan.

STesting elektron platformasi statistikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilning fevral-iyul oylari davomida yurtimizdagi **7750** dan ortiq maktablar ushbu elektron plafotrmadan ro'yhatdan o'tgan bo'lib, ularda **2 500 000** dan ortiq maktab o'quvchilarimiz test-topshiriqlarni bajarib kelmoqdalar. Hozirda **2 000 000** dan ortiq test topshiriqlar tekshirilib baholandi.

Ushbu raqamlar ortida O'zbekistonning milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, jozibadorligini oshirish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan milliy baholash tizimini yaratish maqsadlari ilgari surilgan.

Zamonaviy maktablar o'quvchilarga doim rivojlanish va o'sishga, o'zgarib turadigan olamda o'z o'rnini topish va rivojlantirishga yordam berishi kerak.

PISA tadqiqotining eng muhim kashfiyotlaridan biri shuki, ta'lim tizimlari o'zgarishi va yaxshilanishi mumkin ekan.

O'tmishda ko'rgazmalita'limga amal qilinaredi. Kelgusidagita'lim ko'proq loyihalash va faoliyatga asoslanishi kerak. Buning negizida o'quvchilarga fanlar chegarasidan tashqarida fikrlashga ko'mak beradigan tajribani shakllantirish yotadi. O'tmishda hamma bir xil o'qitilar edi. Kelgusida esa maktablarda xilmillikni, ta'limga differensial yondashuvni rag'batlantirishni yo'lga qo'yish kerak.

O'tmishda ta'limning asosiy vazifasi standartlashtirish va mutanosiblik edi. Kelgusida ta'lim o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlariga, o'quv


jarayonini ixtisoslashtirishga asoslangan bo'lishi kerak, baholash esa o'quvchi shaxsiyati va iqtidorini rivojlantirishga ko'maklashadigan usullarda olib borilishi lozim. Kelgusidagi ta'lif o'quvchilarni kashfiyotchilik va topqirlilikka undashi lozim.

Avvalgi ta'lif standartlarida asosiy e'tibor ta'lif jarayonini ta'minlashga qaratilgan edi, hozirgi zamonaviy standartlar natijaga qaratilishi kerak. Maktab ta'lifining innovatsion sharoitlarini ishlab chiqadigan joyga aylanishi kerak.

Baholash bolalar ta'lifi haqidagi ma'lumot manbalaridan biriga aylanishi, o'qituvchilar va ta'lif siyosatini belgilovchi shaxslarga ta'lif dinamikasini kuzatib borishga yordam berishi lozim. Baholash tizimini xalqaro baholash dasturlari va pedagogik metodlar uchun foydalanadigan instrumentlar yordamida qayta ko'rib chiqish lozim.

Ushbu STesting elektron platformasi natijalari asosidagi ilmiy tahlillar O'zbekiston ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlarga, qabul qilinayotgan qarorlarni samarali joriy etishga va bu jarayonning asosiy ishtirokchilari o'qituvchi va o'quvchilarga katta yordam beradi.





# I. PISA

## XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI

# PISA

---

• • •

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi



A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY  
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA  
O'RGAТИSH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

"O'quvchilar o'zlari real hayotda duch keladigan muammolar bilan tanishishi va ularni hal qilishda olimlar, taqribchilar, faylasuflar ba'zan esa birdaniga barchalarining nuqtai nazaridan yondashishlari darkor".

Andreas Shlyaker

## I. PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI

1961-yilda ish boshlagan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyottashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bordi. Ayniqsa, yangi asrostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishning boisi shundaki, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg'ayishidir. Shu ma'noda OECD dek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'lik samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi.

Tahliliy ma'lumotlarni o'rganar ekanmiz, PISA ning 2018-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarida dunyoning rivojlangan va o'rta daromadli 79 davlatidan jami 10 milliondan ko'proq bola qatnashganini, bugungi kunda PISA dasturi ishtirokchi davlatlari 88 tadan oshganiga etiborimizni qaratdik. PISA bir xil standart va talab bilan butun dunyodagi o'quvchilar bilimini baholaydi. Uning baholash talablarini hech bir davlat milliy standartiga yoki o'quv dasturiga solishtirib bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar

bilimi o'qish, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar savodxonligi yo'nalishlarida o'zlashtirgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qay darajada ishlata olishi tekshiriladi. PISA tadqiqotlarida yuqori natijani ko'rsatish uchun o'quvchilar o'z bilimlarini kerakli vaziyatlarda tadbiq etishlari, fanlar chegarasidan chiqib fikrlashlari va yangi vaziyatlarda o'z bilimlarini ijodiy qo'llay olishlari lozim. Biroq biz o'quvchilarga faqat o'zimiz bilgan narsani o'rgatsak, ular balki faqat bizning yo'llimizdan borish uchungina eslab qolishar. Agar biz ularni o'qishga o'rgatsak, ular o'z yo'llarini tanlashda erkin bo'ladilar. Chunki hayot ertaga bizning shunday muammolarni hal qilish qobiliyatimizni tekshiradi. PISA tadqiqotining eng muhim kashfiyotlaridan biri shuki, ta'lif tizimlari o'zgarishi va yaxshilanishi mumkin ekan.

Bundan tashqari, **2022**-yilgi dasturda kreativ fikrlash ko'nikmasi hamalohida yo'nalish sifatida baholanadi. PISA dasturida ilk marta qatnashguncha Germaniya o'z ta'lif tizimini ilg'or va kamchiligi yo'q, deya baholab kelgan. Biroq bu davlat uchun natija kutilganday bo'lmagandan so'ng xatolar tahlil qilina boshlangan. O'shanda Germaniya ta'lif tizimining nisbatan yopiqligi, tajriba almashish dasturlariga yetarli e'tibor qaratilmayotgani ma'lum bo'lgan. Shundan so'ng Germaniyada ta'lif bilan bog'liq butun tizim qayta ko'rib chiqilgan va alohida **PISA Shock** nomli dastur ishlab chiqilgan. Oradan 9 yil o'tgandan so'nggina Germaniya PISA reytingida yuqorilay boshlaydi. Bugun ta'lif tizimi dunyo bo'yicha eng oldingi ko'rsatkichlarni band qiladigan Finlandyaning ham dastavval PISA tadqiqotlarida natijalari juda yaxshi chiqmagan. Shundan so'ng Finlandiya faqat ko'rsatkichi yuqori maktablarga va o'quvchilariga emas, balki markazdan uzoqda joylashgan ta'lif muassasalariga ham alohida e'tibor berishni boshlagan. Yaponiya esa 2006-yilda PISA dasturida birinchi marta qatnashganida ta'lif tizimida asosan, o'quv dasturida berilgan ma'lumotni yaxshi baholashga ko'p e'tibor qaratayotgani ma'lum bo'lgan. O'shanda Yaponiya o'quvchilari fikrlashga va o'ylashga majbur qiladigan savollarga javob topishda qiynalayotgani kuzatilgan. Mana shu kamchilikni to'g'rilashga harakat qilingan. O'zbekiston ta'lif tizimi ko'p yillar davomida bolalar xotirasini sinashga urg'u berib

kelgan, PISA esa buning butunlay teskarisi: olingan bilimning amaliyotda qay darajada qo'llay olinishini tekshiradi.

Shu kunga qadar PISA tadqiqoti natijalari asosida ishtirokchi mamlakatlaro'zla riningta'limtizimidaturlo'zgarishlar, yangi yondashuvlarni amalga oshirib kelmoqda. Aksariyat hollarda bu islohotlar o'zining ijobiy natijasini bermoqda. PISA tadqiqoti ta'lif tizimining haqiqiy holatini aniqlab, u haqda ob'ektiv xulosa beradi. Ta'lif tizimining "qaysi nuqtada turganligini" va "qaerga qarab yurishi" kerakligini ko'rsatadi. Bu orqali ta'lifni rivojlantirishni strategik rejalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. PISA tadqiqoti natijalari asosida Milliy ta'lif tizimi isloh qilinadi. Tadqiqot natijalari ta'lif mazmunini (fan konsepsiyalari, o'quv reja va dasturlar, o'qitish va baholash metodologiyasini), pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirishda hamda darsliklarning yangi avlodini yaratishga xizmat qiladi.

Biz quyida, STesting platformasida yurtimizdagи 15 yoshli maktab o'quvchilari tomonidan bajarilgan PISA xalqaro tadqiqoti topshiriqlarini baholash natijalarini hamda ularning dinamikasi ilmiy tahlilini ko'rib chiqamiz.




## 1.1. PISA O'QISH SAVODXONLIGI BO'YICH A NATIJALAR

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, STesting platformasida PISA xalqaro baholash dasturlariga oid **30** ta topshiriq va bu topshiriqlar tarkibida **489** ta savollar mavjud. Mazkur savollarning **189** tasi javobi yoziladigan (ochiq) topshiriqlar bo'lsa, qolgan **300** ta topshiriqlar javobi tanlanadigan (yopiq) savollardir. Hozirgi kunda **1000 000** dan ortiq javobi yoziladigan (ochiq) savollar tekshirilgan.

Ushbu platformadagi topshiriqlarda matnlarning dinamik turidan ko'plab foydalanildi. Bu topshiriqlar orqali o'quvchilardagi bir necha manbali matnlar bilan ishlab, kerakli ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qila olishlari, ulardagi ma'lumotlarni o'zaro solishtira olishlari, manbaning ishonchililagini baholay olishlari, matn mazmuni va shakli haqida xulosa chiqara olish kompetensiyalari qay darajada shakllanganligi o'rGANildi.

Platformaga qo'yilgan topshiriqlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar bir manbali matn bilan ishlashda katta qiyinchiliklarga duch kelmadı. Matndagi ochiq holatda berilgan savollarga aksar hollarda to'liq javob berilgan, chunki ona tili va adabiyot darslarida o'qituvchilarimiz bu kabi savollardan foydalanadilar.

**1-rasm. O'quvchilarning kompetensiyalari darajalari.**



Yuqoridagi diagrammadan o'quvchilarimizda aynan o'qigan matnlarini tahlil qilish, undagi ma'lumotlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lash va ular asosida xulosa chiqarish, matndagi har bir konstruksiyaning matn mazmuniga ta'siri, berilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini va sifatliliginibaholay olish kompetensiyalari yaxshi shakllanmaganligini ko'rish mumkin.

**1-jadval. PISA o'qish savodxonligi natijalari.**

T/R	HUDUD	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Sirdaryo	17,7
2	Toshkent viloyati	11
3	Xorazm	10,6
4	Qoraqalpog'iston	9
5	Navoiy	9
6	Buxoro	8,6
7	Qashqadaryo	8,6
8	Samarqand	7,8
9	Namangan	7,5
10	Jizzax	7,4
11	Farg'ona	7
12	Andijon	6,8
13	Toshkent shahar	6
14	Surxondaryo	5,7
O'rtacha baholash natijalari		8,8


STesting platformasining statistikasiga ko'ra PISA o'qish savodxonlik bo'yicha respublikamizning barcha hududlari bo'yicha **15** yoshli mакtab o'quvchilarning o'rtacha umumiy baholash natijasi **8,8%** ni tashkil etdi (1-jadval). Mamlakatimizning 14 ta hududi bo'yicha faqatgina 3 ta (Xorazm, Toshkent viloyati, Sirdaryo) viloyatlaringina **10% dan yuqori** baholash natijalarini qayd etgan bo'lsa, qolgan barcha viloyatlarning mакtab o'quvchilari o'qish savodxonlik bo'yicha **10% dan quyি** baholash natijalarini ko'rsatganlar. Sirdaryo viloyati mакtablari **17,7%** baholash natijalari bilan boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshi natijani qayd etgan bo'lsa, Toshkent shahar, Surxondaryo

viloyatlari maktablari o'z natijalarini **6%** dan ham oshira olmaganlar.

Respublikadagi deyarli barcha maktab o'quvchilari bir manbali matn topshiriqlarni bajarish bir oz oson bo'lgan. Topshiriqlardagi matn ichidagi ochiq holda berilgan savollarga ko'p hollarda to'liq javob berilgan, sababi, fan o'qituvchilari dars mobaynida bu kabi savollardan foydalanadilar. O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarning tahlili va platformaning statistik natijalariga asosan o'quvchilarda o'qigan matnlarini tahlil qilish, undagi ma'lumotlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lash va ular asosida xulosa chiqarish, matndagi har bir konstruksiyaning matn mazmuniga ta'siri, berilayotgan ma'lumotlarning ishonchliliginи va sifatliliginи baholay olish kompetensiyalarini yaxshi shakllanmagan degan xulosaga kelish mumkin.

2-rasmda Andijon viloyatining 14 ta tumanlarida PISA o'qish savodxonlik bo'yicha natijalar tahlili bilan tanishib chiqamiz.

**2-rasm. Andijon viloyati 14 ta tumanlari bo'yicha  
PISA o'qish savodxonligi natijalari.**



Andijon viloyatida PISA o'qish savodxonligi bo'yicha umumiy natija **6,8%** ni tashkil etmoqda. Viloyat tumanlari orasida Jalaquduq, Izboskan va Andijon tumanlarining **12,6-13%** o'qish savodxonligi bo'yicha baholash natijalari bilan nisbatan yaxshi natijani ko'rsatgan bo'lsa, qolgan barcha tumanlarning ko'rsatkichi esa juda past. Ushbu tumanlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi qoniqarsiz ahvolda, javoblarga yuzaki qaralganligini ko'rish mumkin.


Quyida (2-jadval) yurtimizning eng olis shimoliy hududlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining 16 ta tumanlarida PISA o'qish savodxonlik bo'yicha natijalari keltirib o'tilgan.

**2-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari**

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Amudaryo	22,6
2	Kegeyli	14,6
3	Qonliko'l	13,4
4	Beruniy	11
5	Ellikqal'a	10,8
6	Taxiatosh	10,6
7	Mo'ynoq	10
8	Shumanay	9,2
9	Nukus	9,2
10	Qo'ng'iroq	6,4
11	Xo'jayli	6
12	Chimboy	5
13	Bo'zatov	5
14	To'rtko'l	4,6
15	Qorao'zak	3
16	Taxtako'pir	2,6
O'rtacha baholash natijalari		9

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham PISA o'qish savodxonlik bo'yicha olingan natijalarini yaxshi deb bo'lmaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha umumiy baholash natijasi **9%** ni tashkil etgan. Amudaryo tumanining natijasi boshqa tumanlar orasida **22,6%** baholash ko'rsatkichi bilan yaxshi natijani qayd etib turgan bo'lsa, Taxtako'pir tumani esa **2,6%** baholash natijasi bilan eng past natijani ko'rsatgan. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, platformaning statistikasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra barcha viloyatlar orasida Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 4-maktabning 10-sinf o'quvchisi Farruh Soburboevning PISA o'qish savodxonlik bo'yicha ko'rsatkichi juda baland bo'lib, **97%** ni tashkil etgan. 18-son maktabning 9-sinf o'quvchisi Rahmatjon Razzaqov ham **90%** natija bilan kuchli o'ntalikdan joy olgan.

Buxoro viloyatining 11 ta tuman o'quvchilarining PISA o'qish savodxonlik bo'yicha natijalari 3-rasmida keltirilgan.



**3-rasm. Buxoro viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari.**

Buxoro viloyatida PISA o'qish savodxonlik bo'yicha umumiy o'rtacha baholash natijalari **8,6%** tashkil etgan (3-rasm). Viloyatda Olot, Buxoro va Kogon tumanlari nisbatan balandroq, mos ravishda **13,2, 14,4** va **14,8%** natijalar bilan ajralib turibdi. Qolgan tumanlar esa o'rtacha **8-13%** natijani ko'rsatgan. Natijalar past bo'lishiga qaramay, deyarli har oy o'quvchilar faolligi ko'ringan. Ayniqsa, aprel oyidagi viloyat maktab o'quvchilarining faolligini alohida ta'kidlab otish joiz. Buxoro viloyati ta'lif sohasiga katta e'tibori bilan ajralib turishi barchaga ma'lum, ammo **STesting pltaformada** olingan raqamlarga ko'ra, viloyatning 15 yoshli maktab o'quvchilari PISA o'qish savodxonligi topshiriqlarini bajarishda o'z bilimlarini namoyon qilib bera olmaganlar. Viloyat o'quvchilari asosan, o'qigan matnlarini tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelganlar.


Navbatdagi 3-jadvalda Jizzax viloyatida 15 yoshli maktab o'quvchilarining PISA o'qish savodxonlik bo'yicha baholash natijalari keltirilgan.

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Zarbdor	16
2	Do'stlik	11
3	G'allaorol	10
4	Sh.Rashidov	10
5	Forish	9
6	Baxmal	7
7	Zafarobod	6
8	Mirzacho'l	5
9	Zomin	4
10	Arnasoy	4
11	Yangiobod	4
12	Paxtakor	3
O'rtacha baholash natijalari		7,4

**3-jadval. Jizzax viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari**

Jizzax viloyatining 12 ta tumanlari bo'yicha PISA o'qish savodxonligidan umumiylor'ttacha baholash **7,4%** ni tashkil etgan. Zarbdor tumani boshqa tumanlarga nisbatan 6 oy davomida eng baland – **16%** natijani ko'rsatgan. Ushbu hudud cho'l zonasida joylashganiga qaramay, ta'limda yaxshi natijalarni qayd etib keladigan hudud hisoblanadi. Ammo o'qish savodxonligi bo'yicha o'quvchilar o'rtadan quyi (**<10%**) bo'lgan natijani ko'rsatishgan. Paxtakor tumani eng quyi – **3%** natijani ko'rsatgan. Natijalarning bunday pastligi o'quvchilarimizning testlarni bajarish jarayoni yaxshi tashkil etilmaganligidan dalolat beradi. To'g'ri, ma'lum bir muddatda olingan natijalar yuqori ko'rsatkichni namoyon etgan tumanlar ham bor, lekin umumiyl natijani qoniqarli deb bo'lmaydi.

Ushbu viloyat o'quvchilarida matndagi har bir konstruksianing matn mazmuniga ta'siri, berilayotgan ma'lumotlarning ishonchlilagini va sifatlilagini baholay olish kompetensiyalari yaxshi shakllanmaganligini ko'rish mumkin.



4-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari.

PISA o'qish savodxonlik bo'yicha Qashqadaryo viloyatining umumiyl o'rtacha baholash natijalari **8,6%** ni tashkil etgan. Koson, Dehqonobod va Shahrisabz tumanlarining boshqa tumanlarga nisbatan natijalari balandroq bo'lib, mos ravishda, **13,7, 14,4** va **16,2%** ni tashkil etadi. Chiroqchi tumani eng past natijani ko'rsatgan – **1,6%**. Ko'kdala tumani maktab o'quvchilari STesting platformasida PISA o'qish savodxonlik bo'yicha test-topshiriqlarni bajarishda ishtirok etmaganlar. Oyma-oy natijalarga qaraydigan bo'lsak, viloyat bo'yicha maktab o'quvchilari platformada ancha faol ishlaganlar. Qashqadaryo viloyati cho'l, tog'li hamda, poytaxtdan uzoq joylashgan hududlar qatoriga kirsa ham, boshqa viloyatlarga nisbatan o'rtacha baholash natijasini ko'rsatgan.

Kasbi tumanining 19-maktabi, 8-sinf o'quvchisi **Xushnudbek Ergashev 88%** bilan respublika bo'yicha tengqurlari orasida kuchli o'ntalik ro'yhatidan o'rinn olgan.

4-jadvalda mamlakatimizning katta qismini cho'l hududi egallagan Navoiy viloyatining 8 ta tumanlarida 15 yoshli maktab o'quvchilarining PISA o'qish savodxonlik bo'yicha baholash natijalari keltirilgan.


T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Uchquduq	13
2	Konimex	12
3	Qiziltepa	9
4	Tomdi	9
5	Nurota	9
6	Xatirchi	8
7	Karmana	6
8	Navbahor	5
O'rtacha baholash natijalari		9

**4-jadval. Navoiy viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari**

Platformadagi **6 oylik** statistik ma'lumolarga ko'ra, PISA o'qish savodxonlik bo'yicha Navoiy viloyatining umumiyligi o'rtacha baholash natijasi **9%** ni tashkil etgan. Viloyatda 15 yoshli məktəb o'quvchilari Uchquduq tumanida – **12%** va Konimex tumanida – **13%** bilan eng yaxshi natija ko'rsatgan tumanlardir. Umuman olganda, viloyatda oyma-oy statistik natijalar ham juda past ko'rsatkich deyarli yo'q. Navoiy viloyati ham yurtimizning bilimmaskanlaridan biri hisoblanishiga qaramay, Navbahor va Karmana tumanlaridagi məktəb o'quvchilarining oyma-oy ishlash jarayonda faoliyek unchalik sezilmadi. Ammo respublika bo'yicha kuchli o'ntalikka kirgan eng yaxshi natija ko'rsatgan o'quvchilar soni ushbu viloyatga nisbatan ancha ko'p. Navbahor tumanining 14-məktəb 8-sinf o'quvchilari: Aziza Umarova, Sabrina Yandashova, Sug'diyona Ramazonova, Shahrizoda Vafoevalar **88- 96%** natija bilan mos ravishda egallashgan. Bitta viloyatdan to'rt nafar o'quvchi baland natijaga **2-, 3-, 4-, 8-o'rinnlarni** olishlari, albatta, bu yaxshi natija hisoblanadi.

Navbatdagi 5-rasmda Samarqand viloyatining 14 ta tumanlarida PISA o'qish savodxonlik bo'yicha STesting platformasidan olingan natijalar keltirilgan. 5-rasmdan ko'rinish turibdiki, PISA o'qish savodxonligida Samarqand viloyati bo'yicha umumiyligi o'rtacha natija **7,8%** ni tashkil etmoqda. Eng baland natijani Kattaqo'rg'on tumanı **24%** baholash natijasi ko'rsatgan bo'lsa, Bulung'ur tumanida esa eng past natija **0,8%** natijani tashkil qilgan. STesting platformasining statistikasidan olingan natijalarga ko'ra 6 oy davomida faqat fevral oyidagina Bulung'ur tumanı o'quvchilari savollarga javob berishgan, qolgan oyлarda esa ularning faoliyi sezilmadi. Samarqand viloyati məktəbları ham ta'lim sohasi rivojlangan hududlardan hisoblanadi, ammo platformanining statistik raqamlariga ko'ra, viloyatning **15 yoshli məktəb o'quvchilari** PISA o'qish savodxonlik bo'yicha o'z bilimlarini namoyon eta olmaganlar.

Bunga sabab, viloyat məktəb o'quvchilari topshiriqlardagi bir necha manbalı matnlar bilan ishlab, kerakli ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qila olmaganliklaridandir.



5-rasm. Samarqand viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari.



T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Yangier sh	22,6
2	Mirzaobod	21,6
3	Sayxunobod	20,6
4	Guliston	19,6
5	Boyovut	19,4
6	Xovos	16,6
7	Sirdaryo	16
8	Sardoba	14,4
9	Shirin	13,4
10	Oqoltin	12,6
O'rtacha baholash natijalari		17,7


#### 5-jadval. Sirdaryo viloyati tumanlarida PISA o'qish savodxonligi natijalari

Sirdaryo viloyatida umumiy o'rtacha baholash natijasi **17,7%** ni tashkil etgan va u hozirda boshqa viloyatlar ichida eng yaxshi natija. **Yangier, Mirzaobod, Sayxunobod** tumanlarning natijalari nisbatan yaxshi **20-22%** bo'lib, viloyatda 5 oy davomida **10%** dan quyi ko'rsatkich mavjud emas.

Natijalar ushbu viloyat o'quvchilarida topshiriq matnida berilayotgan ma'lumotlarning ishonchlilagini va sifatlilagini baholay olish kompetensiyalari yaxshi shakllanganligini ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatining o'rtacha baholash natijasi **5,7%** ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich mamlakatdagi eng past natjalardan biridir. Boysun tumanida 15 yoshli maktab o'quvchilari 6 oy davomida platformadan umuman foydalanmagan. Shunga qaramay, Angor tumanining 4-sonli maktab 8-sinf o'quvchisi **Fazulla Hasanov 91%** natija bilan respublikada 5-o'rinni egallab kuchli o'ntalikka kirgan.

Platformadagi PISA o'qish savodxonligi topshiriqlarida matnlarning dinamik turidan ko'plab foydalanilgan bo'lib, o'quvchilar asosan, matnlarni tushunishda va ularni tahlil qilishda qiynalganlar.



#### 6-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlarida PISA o'qish savodxonligi natijalari.


Navbatdagi 6-jadvalda Toshkent viloyatining umumiy o'rtacha baholash natijasi 10%ni tashkil etgan. Bo'ka tumanida 1% baholash natijasi bilan eng quyi natija qayd etilgan. Biroq, barcha viloyat tumanlari natijalari orasida Bo'stonliq tumani alohida e'tiborga loyiq. Ushbu tumandagi o'quvchilarning baholash ko'rsatkichi **34%** ni tashkil etgan. Natijalar statistikasini oyma-oy kuzatganda ham Toshkent viloyati stabil yaxshi natijalarni ko'rsatib kelmoqda.

Olingan natijalar asosida ushbu viloyatda PISA xalqaro baholash dasturlariga yaxshi tayyorganlikni boshlab yuborganliklari sezildi.

T/R	TYMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Bo'stonliq	34
2	Piskent	17
3	Yangiyo'l	12
4	Oqqo'rg'on	11
5	Ohangaron	9
6	Zangiota	9
7	Quyichirchiq	9
8	Chinoz	9
9	Yuqorichirchiq	9
10	O'rtachirchiq	7
11	Bekobod	7
12	Parkent	7
13	Qibray	5
14	Bo'ka	1
O'rtacha baholash natijalari		10

#### 6-jadval. Toshkent viloyati tumanlarida PISA o'qish savodxonligi natijalari

7-rasmida Farg'ona viloyatining o'rtacha baholash natijalari **7%** ni tashkil etganini ko'rish mumkin. Bu natija boshqa viloyatlarga nisbatan past natijalardan biri hisoblanadi. 6 oy davomida, platformadan deyarli foydalanmagan tumanlar ham bor. Bular **Quvasoy, Qo'shstepta, Oltiariq** tumanlaridir. Ushbu tumanlarning natijalari **1%** ni tashkil etgan, xolos. Bu viloyatda PISA xalqaro baholash dasturlariga STesting platformaci yordamida test-topshiriqlarni bajarish jarayoni yaxshi tashkil etilmaganligidan dalolatdir.




**7-rasm. Farg'ona viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari.**

Xorazm viloyati tumanlarining umumiy o'rtacha baholash natijasi **10,6%** ni tashkil etgan (7-jadval). Eng olis hududlardan biri bo'lishiga qaramasdan **Qo'shko'pir** tumani yaxshi natija – **19,2%** ko'rsata olgan tumanlardan biri desak bo'ladi. Biroq, Tuproqqa'l tumani boshqa tumanlar orasida eng past natija – **2,6%** bilan ajralib qolgan (7-jadval).

Viloyat muktab o'quvchilarida topshiriqlarni bajarishda matn mazmuni va shakli haqida xulosa chiqara olish kompetensiyalari xali yaxshi shakllanmaganligini ko'rish mumkin.

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Qo'shko'pir	19,2
2	Yangiariq	14,2
3	Urganch shahar	14
4	Bog'ot	13,8
5	Shovot	12,4
6	Gurlan	11,8
7	Xonqa	11,6
8	Xiva shahar	11
9	Xazorasp	10,6
10	Urganch	7,4
11	Xiva	4,8
12	Yangibozor	4,4
13	Tuproqqal'a	2,6
O'rtacha baholash natijalari		10,6

**7-jadval. Xorazm viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari8-rasm.**



**8-rasm. Namangan viloyati tumanlarida  
PISA o'qish savodxonligi natijalari.**

Namangan viloyatining 6 oyda umumiy o'rtacha baholash natijasi **7,57%** ni tashkil etgan (8-rasm). Namangan viloyati boshqaviloyatlarorasidapast ko'rsatkich namoyon etgan viloyatlardan biri hisoblanadi. Yangi Namangan tumanidagi maktab o'quvchilari platformadan faqat aprel oyida foydalanganlar. Shunga qaramasdan ushbu viloyatda respublika bo'yicha kuchli o'ntalikka kira olgan o'quvchilar mavjud. **Mingbuloq** tumanining 45-maktab 8-sinf o'quvchilari **Mohlaroyim Xursanboeva 90%** natija bilan **6-o'rinni** va **Abror Urinboev 88%** natija bilan **10-o'rinni** egallaganlar.

#### **8-jadval. Toshkent shahar tumanlarida**

##### **PISA o'qish savodxonligi natijalari.**

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Mirobod tumani	10
2	Mirzo Ulug'bek tumani	10
3	Uchtepa tumani	10
4	Yashnobod tumani	9
5	Yunusobod tumani	9
6	Chilonzor tumani	8
7	Shayxontohur tumani	5
8	Sergeli tumani	4
9	Olmazor tumani	4
10	Bektemir tumani	2
11	Yakkasaroy tumani	1
<b>O'rtacha baholash natijalari</b>		<b>6,5</b>


Toshkent shahrining umumiy o'rtacha baholash natijasi **6,5%** ni tashkil etgan (8-jadval). Poytaxt uchun bu ko'rsatkich juda past natija, chunki yurtimiz markazida boshqa viloyatlarga nisbatan turli muammolar deyarli yo'q. O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarning tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilarning savollarga javob berish munosabati pastroq. Qisqacha xulosa qilib aytganda, natijalarni yaxshilash uchun har bir maktabda ustozlar ona tili va adabiyot fanlar doirasida o'qish savodxonligi bo'yicha qo'shimcha darslar, amaliy, nazariy mashg'ulotlar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash diapazonini kengaytirishga alohida urg'u berish lozim.

## 1.2. PISA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK NATIJALAR

1.1. bo'limda yurtimizdagи **15 yoshli mакtab o'quvchilarining STesting elektron plaftormasida** bajargan PISA o'qish savodxonlik bo'yicha test- topshiriqlarning natijalarini ilmiy tahlilini ko'rib chiqqan edik. Endi ushbu bo'limda, o'quvchilarning **PISA** tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha egallagan ko'nikmalarini baholash natijalarini taqdim etmoqchimiz. Tabiiy ilmiy savodxonlik – inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili sanaladi. O'quvchilarda tabiiy savodxonlikni rivojlantirishda tabiiy hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish ko'nikmalarini shakllantirish muhim omildir.

Ushbu platformada **1000 000** ga yaqin **15 yoshli mакtab o'quvchilari** PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha egallagan ko'nikmalarini platformaga joylashtirilgan test-topshiriqlari yordamida sinab ko'rganlar. Quyida 9-rasmda mamlakatimizda viloyatlar kesimida PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha natijalar dinamikasi keltirilgan.





**9-rasm. PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari.**

PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha **6 oy** muddatda respublikadagi **7 750** maktablarda STesting elektron platformasida **1 000 000** nafar o'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni baholash ishlari olib borildi. Natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi umumiy baholash natijalari **12%** ni tashkil qildi. Ushbu natija PISA o'qish savodxonlik natijalariga **(8,8%)** qaraganda nisbatan yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi.

Xuddi PISA o'qish savodxonlik natijalari **(17,7%)** kabi, Sirdaryo viloyatining maktab o'quvchilari PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha ham **27,2%** baholash natijalari bilan eng yaxshi natijani qayd etilar. **PISA** o'qish savodxonlik bo'yicha respublikadagi natjalarni ijobiy deb bo'lmaydi. Mamlakatimizdagi 14 ta hududdan **7 ta (Surxondaryo, Jizzax, Toshkent shahar, Farg'on'a, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy)** viloyatlar **10%** baholash natijalarini ham qayd eta olmaganlar. Eng past natijani **Surxondaryo** viloyati **5,6%** ko'rsatkich bilan qayd etdi. Sanab o'tilgan hududlardagi maktab o'quvchilari platformada tabiiy-ilmiy savodxonlik topshiriqlarni bajarishda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalarini ilmiy bilish turlari aks etgan baholash vositalari

yordamida namoyish eta olmaganlar.

Boshqa hududlarga nisbatan yaxshi natija (**10-27%**) ko'rsatgan (**Andijon, Xorazm, Toshkent viloyati, Namangan, QQR, Samarqand va Sirdaryo**) viloyatlari maktab o'quvchilari, fizik sistemalar (fizika va kimyo), tirik sistemalar (biologiya), yer va koinot haqidagi (geografiya, geologiya, astronomiya) fanlarning mazmunini bilish hamda ilmiy ma'lumot (bilim)lar olish uchun qo'llaniladigan turli xil metodlarni, shuningdek, standart tadqiqot jarayonlarini bilishga oid metodologik bilimlarni yaxshi namoyon qila olganlar.

Quyida viloyat tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha qayd etilgan natijalarning tahlilini ko'rib chiqamiz. 9-jadvalda Andijon viloyati tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari keltirilgan.


**9-jadval. Andijon viloyati tumanlarida  
PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari**

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Andijon	20,2
2	Qo'rg'ontep'a	18,2
3	Jalaquduq	17,6
4	Izboskan	16,8
5	Marhamat	13
6	Oltinko'l	12,4
7	Shahrixon	12
8	Bo'ston	9,8
9	Buloqboshi	8
10	Ulug'nor	7,2
11	Xo'jaobod	4,2
12	Paxtaobod	3,4
13	Baliqchi	3,2
14	Asaka	3
O'rtacha baholash natijalari		10,6

9-jadvaldan ko'rinish turibdiki, Andijon viloyatining maktab o'quvchilarining PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha bajargan topshiriqlarning umumiyl natijasi **10,6%**. **Asaka** tumani **3%**, **Baliqchi** tumani **3,2%**, **Paxtaobod** tumani **3,4%** va **Xo'jaobod** tumani **4,2%** baholash bilan PISA tabiiy- ilmiy savodxonlik bo'yicha respublikadagi eng past ko'rsatkichlardan birini qayd etgan. **Andijon** tumani esa **20,2%** baholash natijalari bilan viloyatning boshqa tumanlariga nisbatan yaxshi natijani qayd etgan.

Viloyat o'quvchilari fanning mazmuniga oid bilimlarni, ya'ni o'quvchilarning tabiat haqida fan tomonidan aniqlangan faktlar, qonuniyatlar, g'oyalar, nazariyalarni tushuntira olganlar. Lekin, ma'lumotlarni jadval, grafik, diagramma yordamida abstraksiyalash va ifodalashning umumiyl usullari va ularidan o'rinali foydalanishda qiynalishgan.

#### **10-rasm. Buxoro viloyati tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari.**



Buxoro viloyatining tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha qayd etgan umumiylash natijasi 10% ga ham yetmagan (10-rasm). Qorovulbozor - **2,4%** va Romitan - **3,8%** baholash natijalari bilan eng quyi ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Olot tumani - **15,2%** hamda Buxoro tumanlari - **15,4%** baholash natijalarini qayd etishgan. Geografik nuqtai nazardan olganda, asosan cho'l hududlarga to'g'ri keladigan Qorovulbozor va Romitan tumanlarining natijalari past ko'rsatkich bo'lib, populyatsiyalar (masalan, turlar, evolyusiya, bioxilma- xillik, genetik o'zgarishlar), ekosistemalar (masalan, oziq zanjiri, modda va energiya almashinuvi) to'g'risidagi topshiriqlarga o'quvchilar javob berishga qiyinalishgan.


**10-jadval. Jizzax viloyati tumanlarida  
PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari.**

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Zarbdor	17
2	G'allaorol	11
3	Do'stlik	10
4	Forish	10
5	Sh.Rashidov	9
6	Baxmal	7
7	Zafarobod	7
8	Mirzacho'l	5
9	Zomin	4
10	Arnasoy	4
11	Yangiobod	4
12	Paxtakor	2
O'rtacha baholash natijalari		7

10-jadvalda Jizzax viloyatining 12 ta tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha STesting platformasidan olingan natijalar keltirilgan bo'lib, viloyat bo'yicha o'rtacha umumiylash natijani qoniqarli deb bo'lmaydi.

O'quvchilar viloyat bo'yicha o'rtacha **7%** baholash natijasini ko'rsatib Toshkent shahar maktablarining umumiy ko'rsatkichi bilan deyarli bir xil natijani (**7,2%**) qayd etgan. **Zarbdor** tumanining maktab o'quvchilari PISA tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari bilan **17%** baholash natijalari bilan boshqa tumanlarga nisbatan yaxshi natija qayd etgan bo'lsa, **Paxtakor, Zomin, Arnasoy, Yangiobod, Mirzacho'l, Baxmal, Zafarobod, Sh.Rashidov** tumanlarida ushbu yo'nalish bo'yicha o'rtacha umumiy natijalar **10%** ga ham yetmagan.

#### **11-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari.**



Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha qayd etilgan o'rtacha umumiy baholash ko'rsatkichi - **9,3%**. Ushbu ko'rsatkich qo'shni viloyat Surxondaryo viloyati natijasiga (**5,6%**) nisbatan yaxshi, lekin, umuman olganda bu natija PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish nuqtai nazardan olganda juda ham past natija hisoblanadi (11-rasm). Ushbu natija viloyat bo'yicha 15 yoshli maktab o'quvchilarida hodisalarini ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi qisman shakllanganligini ko'rsatadi.


T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Uchquduq	13
2	Konimex	13
3	Xatirchi	10
4	Nurota	10
5	Qiziltepa	9
6	Tomdi	9
7	Karmana	6
8	Navbahor	6
O'rtacha baholash natijalari		9,5

#### 11-jadval. Navoiy viloyati tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari

Navbatdagi tahlillarimizni Navoiy tumanida 15 yoshli maktab o'quvchilari ko'rsatgan tabiiy-ilmiy savodxonlik natijalari bilan davom ettiramiz (11-jadval). Viloyatning umumiy baholash natijalari **10%** ni ham tashkil qilmagan. **Uchquduq** va **Konimex** tumanlarining maktab o'quvchilari **13%** baholash natijalari bilan nisbatan yaxshi natija ko'rsatgan bo'lsalar, viloyatning qolgan barcha tumanlari natijalari **10%** ga ham yetib bormagan.

Savollar darsliklarda berilgan ma'lumotlarga mos kelishini hisobga olsak, o'quvchi bilimlarni eslash hamda egallagan bilimidan foydalanish ko'nikmasini yaxshi rivojlantira olmaganliklarini bilsish mumkin.





#### 12-rasm. Samarqand viloyati tumanlarida PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari.


Samarqand viloyatining PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi bo'yicha umumiylash ko'rsatkichi 19,8% ni tashkil etadi (12-rasm). Viloyat tumanlarida erishilgan natijalar boshqa viloyat tumanlariga solishtirilganda ancha yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu natijalar viloyat tumanlarida PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyoragarlik ishlari bosqichma-bosqich to'g'ri amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. **Paxtachi** tumanidan boshqa barcha tumanlarning baholash natijalari **10%** dan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. **Bulung'ur** tumanining baholash natijasi republika bo'yicha eng yaxshi natijalardan biri hisoblanib, tuman o'quvchilari **32%** natijani qayd etganlar. Viloyat maktab o'quvchilari ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga oid topshiriqlarni bajarish darajasi yaxshi ekanligini ko'rsatdilar.

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Boyovut	34,8
2	Mirzaobod	30,8
3	Sayxunobod	30
4	Xovos	29,4
5	Sirdaryo	29
6	Yangiyer sh.	27,8
7	Guliston	27,6
8	Oqoltin	23,2
9	Sardoba	20
10	Shirin	19,6
O'rtacha baholash natijalari		27,2

**12-jadval. Sirdaryo viloyati tumanlarida  
PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari**

Sirdaryo viloyati tumanlarida PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ishlari ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan deb aytish mumkin. Viloyatning umumiy baholash natijalari **27,2%** (12-jadval). Shuni alohida qayd etish lozimki, viloyat tumanlarining barchasi **20%** dan yuqori natijalarni qayd etishgan. Hatto, eng quyi natijani qayd etgan Shirin tumani ham **19,6%** baholash natijasini qayd etgan.

Ushbu ijobiy natijalar Sirdaryo viloyatining 15 yoshli maktab o'quvchilarida ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi.



**13-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlarida  
PISA tabiiy-ilmiy savodxonligi natijalari.**


Viloyatning ushbu yo'naliш bo'yicha qayd etgan baholash natijalarini (**5,6%**) ijobjiy deb aytib bo'lmaydi. Viloyat bo'yicha faqat **Angor, Sho'rchi va Qumqo'rg'on** tumanlarida **10%** dan yuqori baholash natijalarini ko'rsatishgan bo'lsa, qolgan barcha viloyat tumanlarida **10%** ham baholash natijalarini qayd eta olmaganlar. Viloyatning umumiy baholash natijasi bor yo'g'i **6%** ni tashkil etadi.

PISA topshiriqlarni bajarish uchun mакtab o'quvchilaridan bilimlarni amaliyatda qo'llash ko'nikmasi talab etiladi. Qayd etilgan natijalar aksariyat Surxondaryo tuman mакtablarda laboratoriya va amaliy ishlар talab darajasida bajarilmaganligini yoki bilimlar faqat nazariy shaklda berilayotganligidan dalolat beradi.

T/R	TUMANLAR NOMI	BAHOLASH NATIJALARI, %
1	Bo'stonliq	33
2	Piskent	17
3	Yangiyo'l	13
4	Oqqo'rg'on	12
5	Quyichirchiq	10
6	Zangiota	9
7	Ohangaron	9
8	Chinoz	9
9	Yuqorichirchiq	8
10	O'rtachirchiq	7
11	Bekobod	7
- Baholash sohasi (mavzu sohasi): hodisani tushuntirish uchun tegishli tabiatshunoslik bilimlarini qo'llash qobiliyati
- Bilim turi: protsessual

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Tanlangan: A vitaminini faqat yog'larda erigan holda ichakda so'riladi.
0	Boshqa javoblar

TOPSHIRIQ 5. HAYOT FAOLLASHTIRUVCHILARI (5 /5).

**ISH XUSUSIYATLARI:**

- Mazmun sohasi: tirik tizimlar
- Kompetentlik sohasi: ma'lumotlarni sharhlash va xulosalar chiqarish uchun ilmiy dalillardan foydalanish
- Kontekst: shaxsiy
- Murakkablik darajasi: o'rtacha
- Javob formati: bitta to'g'ri javobni tanlash
- Baholash sohasi (mavzu sohasi): ma'lumotlarni tahlil qilish, sharhlash qobiliyati va tegishli xulosalar chiqarish
- Bilim turi: protsessual

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Tanlangan: Qaynayotgan suvda C vitaminini yo'q qiladigan kislorod yo'q.
0	Boshqa javoblar

## 4-TOPSHIRIQNING BAHOLASH MEZONI. "CHIVINLAR"

Vazifaning xarakteristikalari va baholash tizimi

PASHSHALAR. 1-MASHQ.

### ISHNING XUSUSIYATLARI:

- Mazmun sohasi: tirik tizimlar
- Kompetentlik sohasi: hodisalarни ilmiy tushuntirish
- Kontekst: global
- Murakkablik darajasi: yuqori
- Javob formati: batafsil javobli topshiriq (matn, rasm shaklida yoki ikkala rasm va matn).
- Baholash ob'ekti: kurs bo'yicha bashorat qilish va ilmiy asoslash
- Jarayon yoki hodisa

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
2	Aytishlaricha, chivinlar (yoki pashshalar) nektar bilan oziqlanadi va o'simlikdan o'simlikka uchib, ularning changlanishida ishtirok etadi. Agar changlanish bo'lmasa o'simliklar meva bermaydi.
1	Faqat chivinlar o'simliklarning ko'payishiga yordam beradi, deb aytilsa, bu qanday sodir bo'lishini tushuntirmasa
0	Tushuntirish berilmagan yoki tushuntirish noto'g'ri.

PASHSHALAR. 2-MASHQ.

**ISHNING XUSUSIYATLARI:**

- Baholashning mazmuni: tirik tizimlar.
- Kompetensiya sohasi: fikrlar, yondashuvlarni tahlil qilish,
- Kontekst: global.
- Qiinchilik darajasi: quyi.
- Javob formati: ketma-ketlik vazifasi.
- Baholash ob'ekti: ma'lumotlarni tahlil qilish, sharhlash va tegishli xulosalar chiqarish

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Chapdan o'ngga o'chirilgan derazalarda: loyning organik qoldiqlari - chivin lichinkasi – yirtqich ninachi lichinkasi – sudak – dengiz oq dum burguti
0	Boshqa javoblar

## PASHSHALAR. 3-MASHQ.

### ISHNING XUSUSIYATLARI:

- Baholashning mazmuni: tirik tizimlar.
- Kompetensiyalar sohasi: ma'lumotlarni sharhlash, xulosalar olish.
- Kontekst: global.
- Qiyingchilik: o'rtacha.
- Javob formati: ketma-ketlik vazifasi.
- Baholash ob'ekti: ma'lumotlarni tahlil qilish, sharhlash va yaratish
- Tegishli xulosalar

### Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Chapdan o'ngga o'chirilgan derazalarda: loyning organik qoldiqlari - chivin lichinkasi – yirtqich ninachi lichinkasi – sudak – dengiz oq dum burguti
0	Boshqa javoblar

PASHSHALAR. 4-MASHQ.

**ISHNING XUSUSIYATLARI:**

- Baholashning mazmuni: tirik tizimlar.
- Kompetensiya sohasi: hodisalarни ilmiy jihatdan tushuntirish.
- Kontekst: global.
- Qiinchilik darajasi: past.
- Javob formati: bitta to'g'ri javobni tanlash bilan topshiriq.
- Baholash ob'ekti: kurs bo'yicha bashorat qilish va ilmiy asoslash
- Jarayon yoki hodisa

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Tanlangan: B. Inson va uy hayvonlarining himoyasi uchun zaharli ximikatlardan o'rtacha foydalanish.
0	Boshqa javoblar

## 5-TOPSHIRIQNING BAHOLASH MEZONI. "RESURSLAR VA CHIQINDILAR" (5 ta topshiriq)

Vazifaning xarakteristikalari va baholash tizimi

RESURSLAR VA CHIQINDILAR. 1-MASHQ.

### VAZIFANING XUSUSIYATLARI:

- Baholashning mazmuni: jismoniy tizimlar
- Baholashning vakolat sohasi: hodisalarini ilmiy tushuntirish
- Kontekst: global
- Qiyinchilik: o'rtacha
- Javob formati: tegishli vazifa (ikki guruh ob'ektlar)
- Baholash ob'ekti: hodisani tushuntirish uchun tegishli tabiatshunoslik bilimlarini qo'llash qobiliyati
- Bilim turi: mazmunli bilim

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni												
2	<p>Qayd etilgan javoblar</p> <table border="1"><thead><tr><th>Mahsulot/ buyum</th><th>A</th><th>B</th><th>C</th><th>D</th><th>E</th></tr></thead><tbody><tr><td>Resurslar</td><td>1,3,6</td><td>1,4,6</td><td>3,4,6</td><td>1,3,5,6</td><td>2,3,6</td></tr></tbody></table> <p>Qolgan javoblar belgilanmagan</p>	Mahsulot/ buyum	A	B	C	D	E	Resurslar	1,3,6	1,4,6	3,4,6	1,3,5,6	2,3,6
Mahsulot/ buyum	A	B	C	D	E								
Resurslar	1,3,6	1,4,6	3,4,6	1,3,5,6	2,3,6								
1	2 tadan ortiq xatolik yuz berdi.												
0	Boshqa barcha javoblar qabul qilinmaydi												

RESURSLAR VA CHIQINDILAR. 2-MASHQ.

**VAZIFANING XUSUSIYATLARI:**

- Baholashning mazmuni: jismoniy tizimlar.
- Kompetensiya sohasi: hodisalarni ilmiy tushuntirish.
- Kontekst: shaxsiy.
- Qiinchilik darajasi: past.
- Javob formati: bir nechta tanlov vazifasi
- Baholash ob'ekti: hodisani tushuntirish uchun tegishli tabiatshunoslik bilimlarini qo'llash qobiliyati
- Bilim turi: mazmunli bilim

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	<p>Tanlangan:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Qog'oz va karton</li><li>- Shisha idishlar va idishlar</li><li>- Metall idishlar.</li></ul>
0	Boshqa javoblar

## RESURSLAR VA CHIQINDILAR. 3-MASHQ.

### VAZIFANING XUSUSIYATLARI:

- Baholashning mazmuni: jismoniy tizimlar
- Baholashning vakolat sohasi: hodisalarni ilmiy tushuntirish
- Kontekst: global
- Qiyinchilik: o'rtacha
- Javob formati: murakkab ko'p tanlovli vazifa
- Baholash ob'ekti: jarayon yoki hodisaning borishi haqida bashorat qilish va ilmiy asoslash qobiliyati.
- Bilim turi: mazmunli bilim

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni	
2	Chiqindi turlari	Qayta ishlash usullari
	1. Maishiy texnika buyumlari	qimmatli qismlarni olish yoki ikkilamchi xom ashyyoga qayta ishlash
	2. Oziq-ovqat chiqindilari	kompost yoki bioyoqilg'i olish
	3. Avtomobil shinalari	maydalash va qurilishda foydalanish
	4. Qog'oz chiqindi	ikkilamchi xom ashyyoga qayta ishlash
	5. Batareyalar	qimmatli qismlarni olish
1	6. Plastik paketlar	ikkilamchi xom ashyyoga qayta ishlash
	5ta chiqindi turiga to'g'ri javob tanlangan bo'lsa	
0	Boshqa barcha javob variantlari qabul qilinmaydi	

RESURSLAR VA CHIQINDILAR. 4-MASHQ.

**VAZIFANING XUSUSIYATLARI:**

- Baholashning mazmuni: jismoniy tizimlar
- Baholashning vakolat sohasi: hodisalarni ilmiy tushuntirish
- Kontekst: mahalliy
- Qiychilik: yuqori
- Javob formati: bat afsil javobli topshiriq (matn, rasm shaklida yoki ikkala rasm va matn)
- Baholash ob'ekti: tushuntirish modellari va taqdimotlarini tan olish, ulardan foydalanish va yaratish qobiliyati.
- Bilim turi: mazmunli bilim

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
2	<p>Javob sifatida qayd etilgan: <math>\text{CO}_2</math>, <math>\text{SO}_2</math>, <math>\text{NO}_2</math> kislotali oksidlardir. Ularni zararsizlantirish uchun siz gidroksid yoki asosli oksidlardan foydalanishingiz kerak.</p> <p>va</p> <p>reaksiya tenglamalari yoziladi:</p> $\text{CO}_2 + \text{CaO} = \text{CaCO}_3$ $\text{SO}_2 + \text{NaOH} = \text{Na}_2\text{SO}_3.$
1	<p>Ularni zararsizlantirish uchun gidroksid yoki asosli oksidlardan foydalanish kerakligi yozilgan javob</p>
0	Boshqa javoblar

## RESURSLAR VA CHIQINDILAR. 5-MASHQ.

### VAZIFANING XUSUSIYATLARI:

- Baholashning mazmuni: jismoniy tizimlar
- Baholashning vakolat sohasi: tabiiy fanlarni qo'llash usullari
- Kontekst: shaxsiy
- Qiyinchilik: o'rtacha
- Javob formati: Batafsil javobli topshiriq (matn, rasm shaklida yoki ikkala rasm va matn)
- Baholash ob'ekti: buning maqsadini tan olish va shakllantirish qobiliyati tadqiqot.
- Bilim turi: protsessual bilimlar

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
2	Ta'kidlanishicha, eksperimentdan maqsad materiallardan qaysi biri tuproqda tezroq parchalanishini aniqlashdir yoki paketning tuproqdagi parchalanish vaqtiga material turiga qanday bog'liq..
1	turli MRT suratlari solishtirish uchun taklif etiladi
0	Boshqa javoblar

## 6-TOPSHIRIQNING BAHOLASH MEZONI. QUYOSH PANELLARI (5 ta topshiriq)

Vazifaning xarakteristikalari va baholash tizimi

QUYOSH PANELLARI. TOPSHIRIQ 1.

### VAZIFANING XUSUSIYATLARI:

- Baholashning mazmuni: jismoniy tizimlar
- Baholashning vakolat sohasi: hodisalarni ilmiy tushuntirish
- Kontekst: global
- Qiyingchilik: o'rtacha
- Javob formati: bitta to'g'ri javobni tanlash
- Baholash ob'ekti: hodisani tushuntirish uchun tegishli tabiatshunoslik bilimlarini qo'llash qobiliyati
- Bilim turi: mazmunli bilim

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Tanlangan: yorug'lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish
0	Boshqa barcha javoblar qabul qilinmaydi

## QUYOSH PANELLARI. TOPSHIRIQ 2.

### VAZIFANING XUSUSIYATLARI:

- Mazmun sohasi: geofanlar
- Kompetentlik sohasi: hodisalarini ilmiy tushuntirish
- Kontekst: global
- Murakkablik darajasi: o'rtacha
- Javob formati: to'g'ri javoblarning bir nechta tanlovi
- Baholash sohasi (mavzu sohasi): hodisani tushuntirish uchun tegishli tabiatshunoslik bilimlarini qo'llash qobiliyati
- Bilim turi: mazmunli bilim

### Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	<p>Tanlangan:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Quyosh panellaridan elektr energiyasini olish atmosferaga zararli moddalarni chiqarmaydi.</li><li>• Quyosh panellaridan elektr energiyasi olish Yerdagi neft va gaz zahiralarini tejash imkonini beradi.</li></ul> <p>Boshqa variantlar tanlanmagan.</p>
0	Boshqa iavoblar

QUYOSH PANELLARI. TOPSHIRIQ 3.

**VAZIFANING XUSUSIYATLARI:**

- Mazmun sohasi: geofanlar
- Kompetentlik sohasi: ma'lumotlarni sharhlash va xulosalar chiqarish uchun ilmiy dalillardan foydalanish
- Kontekst: mahalliy
- Murakkablik darajasi: past
- Javob formati: mos va batafsil javob
- Baholash sohasi (mavzu sohasi): ma'lumotlarni tahlil qilish, sharhlash qobiliyati
- Bilim turi: mazmunli bilim

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
2	<p>Tanlangan:</p> <p>A pozitsiyasi - qish B pozitsiyasi - yoz.</p> <p>Va tushuntirishda ikkita omil ko'rsatilgan:</p> <p>1) bunday qoidalar bo'yicha quyosh nurlari panel tekisligiga perpendikulyar panelga tushadi;</p> <p>2) shuning uchun panel quyoshdan energiya (quyosh nurlari) ko'proq oladi.</p>
1	<p>Tanlangan:</p> <p>A pozitsiyasi - qish B pozitsiyasi - yoz</p> <p>Va tushuntirishda yuqorida aytib o'tilgan omillardan faqat bittasi keltirilgan.</p>
0	<p>Noto'g'ri tanlangan:</p> <p>A pozitsiyasi - yoz B pozitsiyasi - qish YOKI</p> <p>To'g'ri tanlangan:</p> <p>A pozitsiyasi - qish B pozitsiyasi - yoz LEKIN</p> <p>Tushuntirish yetishmayotgan yoki noto'g'ri tushuntirish berilgan, masalan:</p> <p>"Qishda quyosh ufqda pastroq, yozda esa balandroq" (oddiiy rasmdagi rasmning bayonoti).</p>

QUYOSH PANELLARI. TOPSHIRIQ 4.

**VAZIFANING XUSUSIYATLARI:**

- Mazmun sohasi: jismoniy tizimlar
- Kompetentlik sohasi: ilmiy tadqiqot usullarini qo'llash
- Kontekst: global
- Murakkablik darajasi: o'rtacha
- Javob formati: batafsil javob
- Baholash sohasi (mavzu sohasi): berilgan masala bo'yicha ilmiy tadqiqot usulini taklif qilish yoki baholash qobiliyati
- Bilim turi: protsessual

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
1	Javob o'lchangan ko'rsatkichlardan kamida bittasini o'z ichiga oladi: akkumulyatorning turli pozitsiyalarda chiqaradigan elektr tokining kattaligi bo'yicha; panelni turli holatda isitish (harorat) orqali; panelning turli pozitsiyalarda yoritilishiga ko'ra.
0	Boshqa javoblar

QUYOSH PANELLARI. TOPSHIRIQ 5.

**VAZIFANING XUSUSIYATLARI:**

- Mazmun sohasi: geofanlar
- Kompetentlik sohasi: ma'lumotlarni sharhlash va xulosalar chiqarish uchun ilmiy dalillardan foydalanish
- Kontekst: global
- Murakkablik darajasi: yuqori
- Javob formati: batafsil javob
- Baholash sohasi (mavzu sohasi): ma'lumotlarni tahlil qilish, sharhlash va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyati
- Bilim turi: mazmunli bilimlar

Baholash tizimi:

Ball	Mezonning mazmuni
2	Izohda aytishicha, nurlar qiya (qish) tushganda, energiya katta maydonga taqsimlanadi va ular to'g'ri (yoq) tushganda energiya kamroq maydoni taqsimlanadi. Shunday qilib, bu maydon yanada qiziydi.
1	Faqat qishda nurlarning qiyshiq tushishi bilan Yer yuzi tekis tushishdan ko'ra kamroq qiziydi deyiladi  Yoki, Yer yuzasining isishi quyosh nurining tushish burchagiga bog'liq.
0	Boshqa javoblar, shu jumladan: «qishda, Quyosh ufqida pastroq, shuning uchun sovuqroq».



## **1.5. PISA TADQIQOTI NATIJALARI XULOSALARI**

---

STesting elektron platformasida PISA tadqiqotida mamlakatimizdan jami 1 000 000 ga yaqin maktab o'quvchilari joriy yilning fevral-iyul oylarida 6 oy mobaynida ishtirok etdilar. Ular o'qish savodxonligi, tabiiy- ilmiy savodxonlik va matematik savodxonlik yo'nalishlarida olgan bilimlarini PISA tadqiqotlarida o'tgan yillar davomida foydalilanilgan ochiq bazadagi test-topshiriqlarini bajarib sinab ko'rdilar.


O'qish savodxonlik yo'nalishi bo'yicha Sirdaryo viloyati 17,7% natija bilan eng yaxshi natijani qayd etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyati maktab o'quvchilari o'rtacha 5,7% ni tashkil qildi. Tumanlar bo'yicha olganda, Kattaqo'og'on tumani 24% bilan eng yaxshi natijani qayd etgan bo'lsa, Bulung'ur tumani esa 0,8% bilan ruspublikadagi eng quyi natijani ko'rsatdi. Solishtirish uchun, PISA-2018 tadqiqotlarida Filippin davlati 440 ball (44%) bilan eng oxirgi natijani qayd etgan.

PISA tadqiqotida o'qish savodxonligini tushunish, kerakli ma'lumotni topa olish, mazkur ma'lumotlardan foydalana olish, ular haqida mulohaza yuritish va ma'lumotlar asosida xulosa chiqara olish kompetensiyalarini o'quvchilar bilan yanada chuqurroq o'rGANISH lozim. Platformadagi matnlarda o'quvchi bir necha manbali matnlar bilan ishlab, ulardagi kerakli ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qila olishlari va ma'lumotlarni o'zaro solishtirish, manbaning ishonchililagini baholay olish, matn mazmuni va shakli haqida xulosa chiqara olish kompetensiyalarini ham o'rganishi kerak. Platformaga qo'yilgan topshiriqlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar bir manbali matn bilan ishlashda katta qiyinchiliklarga duch kelishyapti. Matndagi ochiq holatda berilgan savollarga aksar hollarda to'liq javob berilmagan. Va, ayniqsa, test usulida tuzilgan savollarga deyarli javob berilmagan. Shularning hisobiga aksariyat hududlarimizda maktab o'quvchilarimiz o'qish savodxonligi bo'yicha quyi ko'rsatkichlarni qayd etdilar.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha Sirdaryo viloyati 27,2% baholash natijasi bilan eng yaxshi natijani qayd etgan bo'lsa, Surxondaryo viloyati 5,6% baholash natijasi bilan uning aksini ko'rsatgan. Tumanlar bo'yicha Boyovut 34,8% baholash natijasi bilan respublikadagi eng yaxshi natijani qayd etgan bo'lsa, Farg'ona viloyatining Qo'shtepa, Oltiariq va Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanlari 1% natija bilan eng quyi natijani qayd etdilar. PISA- 2018 tadqiqotlarida Dominika respublikasi 336 ball (33,6%) bilan eng oxirgi natijani qayd etgan.

O'quvchilar tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha topshiriqlarni bajarishda eng oddiy tushunchalarni ham yangi vaziyatlarda qo'llashda, yoki fikrlarini taklif qilish so'ralganda qiyinchilikka duch kelishdi. Topshiriqda berilgan grafik ma'lumotlarga asoslangan savolga javob berish so'ralganda, ular ko'pincha bunday ko'rsatmalarni tushunmaganliklarini kuzatildi. Topshiriqni tushuntirish yoki asoslashni so'ralganda, ular buni tushunmagandek taassurot qoldirdilar. Bu esa o'quvchilarning badiiy adabiyotlarni ko'po'qimaganliklaridan va topshiriqlarni o'qib tushunishda muammolari borligidan dalolat beradi. Bunday hollarda ular hodisalarini jiddiy tahlil qilmasdan, fikrlamasdan tez javob berishni afzal ko'radilar va xatolikka yo'l qo'yadilar.





## **II. TIMSS**

### XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI



**TIMSS**

---

• • •

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi



A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY  
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA  
O'RGAТИSH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

## II. TIMSS ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ ТАДҚИҚОТИ

**TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study)**-o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan baholash darajasini baholash dasturi hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlaridagi o'rta maktab o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitish darajasi va sifatini, shuningdek milliy ta'lif tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlash va taqqoslash imkonini beradi.


2019-yilda o'tkazilgan yettinchi davra TIMSS tadqiqotida **67** ta mamlakat ishtirok etgan va **Singapur, Gong Kong, Koreya Respublikasi, Xitoy Taypeyi, Yaponiya** kabi davlatlar eng yuqori natijalarga erishgan. Navbatdagi TIMSS tadqiqoti 2023-yilda o'tkaziladi va unda o'zbekistonlik o'quvchilarning ham ilk bora ishtirok etishi ko'zda tutilgan. Umuman olganda, TIMSS va PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlar savodxonligini ustuvor yo'nalihsifatida baholanishi inobatga olinsa, ular Respublikamizda bugungi kunda matematika va tabiiy fanlarni yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga ham to'liq mos keladi, deb aytish mumkin.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan davlatlarning ta'lif sohasidagi ilg'or va bizga mos tajribalarini mamlakat ta'lif tizimida qo'llash, o'quvchilarimizning natijalarini boshqa davlatlar o'quvchilari natijalari bilan taqqoslash hamda kelgusi islohotlarda inobatga olish imkoniyatlariga ega bo'ladi.


Yurtimizning 4- va 8-sinf o'quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlarni baholash darajasi aniqlab belgilab olish

maqsadida, STesting elektron platformasida TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlari olib borildi. Hozirgi kunda, STesting elektron platformasida TIMSS tadqiqotida yurtimizdagi 1 000 000 ga yaqin to'rtinchi va sakkizinchisinfarda baholashlarni o'tkazishning odatdagi tajribasi o'tkazildi. Platformada TIMSS xalqaro tadqiqotlarining ochiq bazasidagi 500 dan ortiq topshiriqlar joy olgan bo'lib, 6 oy davomida TIMSS tadqiqoti bo'yicha 2 500 000 dan ortiq test-topshiriqlari bajarildi.

Quyida 2.1. bo'limda ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili keltirib o'tiladi. Avvalo, 4- va 8-sinf o'quvchilarning matematika fanidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan tanishib chiqamiz.



**21-rasm. 4-sinf matematika fanining mazmun sohalari**



**22-rasm. 8-sinf matematika fanining mazmun sohalari.**

## 2.1. TIMSS TABIIY FANLAR TADQIQOTLARI NATIJALARI

Oldingi 2.1.bo'limda 4- va 8-sinf maktab o'quvchilarining TIMSS matematika fani tadqiqotlari natijalari tahlili keltirildi. Ushbu bo'limda TIMSS tabiiy fanlar tadqiqotlari natijalari keltiriladi.


Tabiiy fanlar bo'yicha ta'lif yutuqlarini baholashda ham turli xil vazifalar qo'llaniladi (javobni tanlash, qisqa va to'liq yoritilgan javobni berish, amaliy vazifalar). Vazifalar biologiya, kimyo, fizika, geografiya fanlari mavzulari bo'yicha ishlab chiqiladi. Tadqiqotda o'quvchilarning dalillarni bilish, konseptualtushunish, analitik qobiliyatlar, umumlashtirish, rejalashtirish, o'rganish va boshqa ko'nikmalar baholanadi. Ushbu ko'nikmalarni baholash uchun TIMSS tadqiqotlar ochiq bazasidagi tabiiy fanlarga mos bo'lgan 4- sinflar uchun 180 ta, 8-sinflar uchun esa 160 ta, jami 340 ta topshiriqlar platformadan joy olgan.

TIMSS tabiiy fanlar qamrov doirasi ikkita o'lchovni qamrab oladi:


- fan mazmunini o'lchash, baholanishi kerak bo'ladigan mazmun;
- kognitiv o'lchov, baholanishi kerak bo'ladigan fikrlash jarayonlari.




**8-синф. Контекс соҳаси.**



**4-синф. Контекс соҳаси.**



■ 8-sinf ■ 4-sinf



**31-rasm. 4- ва 8-sinflarda TIMSS xalqaro baholashning tabiiy fanlar mazmuni va kognitiv sohalarga oid topshiriqlar foizlari.**

T/R	VILOYATLAR	O'RTACHA BALL
1	Toshkent viloyati	266
2	Namangan	254
3	Andijon	250
4	Toshkent shahar	236
5	Jizzax	234
6	Navoiy	231
7	Qashqadaryo	230
8	QQR	224
9	Samarqand	222
10	Buxoro	212
11	Sirdaryo	204
12	Surxondaryo	186
13	Farg'on'a	168
14	Xorazm	154

**31-jadval. TIMSS tadqiqtasi topshiriqlari bo'yicha  
4- sinf o'quvchilarining natijalari**

Bunda Xorazm viloyati o'rtacha 154 ball bilan eng quyi ko'rsatkichni namoyon etgan bo'lsa, Toshkent viloyati 266 ball bilan nisbatan eng yaxshi natijani qayd etgan.

Endi, mamlakatimizdagi 8-sinf o'quvchilarining platformada tabiiy fanlar bo'yicha olgan natijalarning tahlilini ko'rsatamiz. 52-jadval ushbu natijalarning o'sish tartibida kuzatish mumkin. Buxoro viloyatining 4-sinf o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha 212 ball bilan o'rtacha natijalardan birini qayd etgan bo'lsa, ushbu viloyatning 8-sinf o'quvchilari 90 ball bilan nisbatan yomon natijani qayd etgan. Ushbu holatni eng yaxshi natijani aniqlashda ham kuzatish mumkin. Toshkent viloyatning 4-sinf muktab o'quvchilari o'rtacha 266 ball o'zlashtirshi natijalarini qayd etgan bo'lsa, ushbu viloyatning 8-sinf o'quvchilari 116 ball bilan eng yomon ko'rsatkichlardan birini namoyon etdilar. Namangan viloyatining 4- va 8-sinf o'quvchilari mos ravishda 236 va 244 ball bilan eng yaxshi natijalarni qayd etganlar.

T/R	VILOYATLAR	O'RTACHA BALL
1	Namangan	244
2	Surxondaryo	236
3	Sirdaryo	232
4	QQR	230
5	Xorazm	228
6	Qashqadaryo	216
7	Navoiy	214
8	Farg'ona	212
9	Jizzax	210
10	Toshkent viloyati	210
11	Andijon	168
12	Samarqand	124
13	Toshkent shahar	116
14	Buxoro	90
O'rtacha baholash natijalari		178

**31(a)-jadval. TIMSS tadqiqoti topshiriqlari bo'yicha  
8- sind o'quvchilarining natijalari**


31(a)-jadvalda respublika bo'yicha STesting platformasida maktab o'quvchilari tomonidan TIMSS tadqiqoti topshiriqlari bo'yicha 8- sind o'quvchilarining natijalari umumiy o'rtacha raqamlari keltirilgan. Ushbu yo'naliш bo'yicha, respublikadagi umumiy o'rtacha ko'rsatkich 178 balni tashkil etadi. Faqatgina Buxoro viloyati maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha olgan natijalari 100 ballni ham tashkil eta olmagan. Qolgan barcha tumanlarda 116- 244 balgacha umumiy o'rtacha natijalarini qayd etgan. Toshkent shahar, Samarqand viloyati va Andijon tumanlari 100 balli natijalarini qayd etgan bo'lalar (116-168 ball), qolgan viloyat maktab o'quvchilarining natijalari 200 baldan oshgan (210-244 ball). TIMSS tadqiqotlarining tabiiy fanlar bo'yicha respublikada eng yaxshi natijani Namangan viloyati maktab 8-sind o'quvchilari 244 ball bilan qayd etgan.

TOPSHIRIQLARNING MAZMUN SOHALARI BO'YICHA KO'RSATKICHLARI	SINFLARDA KO'RSATKICHLARNING DARAJALARI, %	
	4-SINF	8-SINF
Moddalarning xususiyatlari va klassifikasiysi	26	29
Ekosistemalar	15	14
Tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularda kechadigan hayotiy jarayonlar		26
49		16
26	45	51
Organizmlarning hayot sikllari, ko'payish va irlsiyat	21	16
Odam salomatligi	45	51
Organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati	24	18
Yer tuzilishi, yer qobiqlarining tavsifi, tabiiy resurslar	46	36
Yerdagi jarayonlar, sikllar, yerning geologik tarixi	44	28
Quyosh sistemasidagi yer	41	24
Issiqlik va harorat	48	25
Energiyaning bir turdan boshqa turga o'tishi, issiqlik va harorat	47	18
Harakat va kuch	26	26
Hilma-xillik, moslanishlar va tabiiy tanlanish	36	33
Moddalarning xossalari	32	40
Hujayra va ularning funksiyasi	21	29
Elektr toki va magnetizm	22	19

**32-jadval. Topshiriqlarning mazmun sohalari bo'yicha ko'rsatkichlar**

Yuqorida 32-jadvalda keltiriladigan ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Sababi, viloyat, tuman, maktab va o'quvchilarning natijalari ushbu ma'lumotlar asosida kelib chiqadi. Ushbu jadvalda plafotmagajoylashtirilgan TIMSS tadqiqoti tabiiy fanlar topshiriqlarining mazmun sohalari bo'yicha ko'rsatkichlari va sinflar bo'yicha darajalari (%) keltirilgan. Mazmun sohalarining har biri bir nechta asosiy mavzularni o'z ichiga oladi. Jadvalda 4-sinf o'quvchilarida Hayot haqidagi fan mazmun sohasidagi hayot sikllari, ko'payish va irsiyat, ekosistemalar, organizmlar, atrof- muhit va ularning o'zaro ta'siri mavzulardagi topshiriqlariga, fizika mazmun sohasidagi moddalarning xususiyatlari va o'zgarishlari, moddalar klassifikatsiyasi, energiya shakllari va energiyani uzatish, kuch va harakat mavzulariga oid, Yer haqidagi fan mazmun sohasida Yerning fizik xossalari, resurslari va tarixi, Quyosh sistemasida Yer mavzusiga oid topshiriqlarga javob bera olmaganligi foizlarda ko'rsatilgan (32-jadval).

4-sinf o'quvchilarini fan mazmuniga oid topshiriqlarni bajarganlik dinamikasiga (32-rasm) e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Hayot haqidagi fan" mazmun sohasidagi bilimlar o'quvchilarimiz tomonidan boshqa kontent sohaga nisbatan 55% topshiriqlarga javob bera olganlar.



**32-rasm. 4-sinf o'quvchilarini fan mazmuniga oid topshiriqlarni bajarganlik dinamikasi.**

4-sinf o'quvchilari tomonidan tabiiy fanlar bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish natijalari (Hayot haqidagi fan) quyida keltirilgan.

MAZMUN SOHASI	HAYOT HAQIDAGI FAN
Kognitiv soha	Bilish
Muvaffaqiyat darajasi:	Yuqori
O'zbekiston natijasi	53%
Rossiya natijasi	67%
Mamlakatlar natijasi	45%
Yuqori natija	84%
Quyi natija	10%

Masalan, organizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularda kechadigan hayotiy jarayonlarga quyidagi topshiriq misolida tahlil qilib chiqamiz.

Quyidagi rasmda cho'l tasvirlangan.

Rasmdagi ikkita tirik jonzotlar va ikkita jonsiz narsani ko'rsating



To'g'ri javob:      *jonli ob'ektlar: 1. Tuya 2. Kaltakesak*

*jonsiz ob'ektlar: 1. Kaktus 2. Yantoq*

Topshiriqda jonli va jonsiz tabiat orasidagi farqlarni tushunish va tavsiflash tekshiriladi. Bu yerda tirik organizmlarning belgilari va jonsiz tabiat ob'ektlari haqidagi bilim baholanadi. O'zbekiston maktabalarida o'rtacha natijalar 2-sinf va 3-sinfdagি

"Atrofimizdagи olam" kursi mavzulari unutilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu topshiriq o'quvchilardan rasmda ko'rsatilgan tabiatning ikkita jonli va jonsiz ob'ektini yozish talab qilingan. Eng yaxshi natijani Singapurlik o'quvchilar (84%) bajarishdi. Mamlakatlar orasida barcha ishtirokchilar topshiriqni o'rtacha foizida 45% natija ko'rsatdilar. Rossiya o'quvchilar 67% bajarishdi. O'zbekiston o'quvchilari esa STesting platformasida 53% natija ko'rsatdilar.

4-sinf mакtab o'quvchilarining tabiiy fanlarning yuqori darajasini quyidagi ma'lumotlarda ko'rib chiqamiz.

MAZMUN SOHASI	HAYOT HAQIDAGI FAN
Kognitiv soha	Qo'llash
Muvaffaqiyat darajasi:	Yuqori
O'zbekiston natijasi	12%
Rossiya natijasi	37%
Mamlakatlar natijasi	30%
Yuqori natija	69%
Quyi natija	5%

Ekosistemalar - quyidagi rasmda tabiat ekotizimidagi ozuqa zanjiri tasvirlangan. Bu ozuqa zanjiridan kelib chiqadigan bo'lsak, lochin nima bilan oziqlanadi? Qo'ng'iz, quyon, o'simlik?

To'g'ri javob: 1. Qo'ng'iz 2. Quyon.



Ushbu topshiriq o'quvchilardan rasmda ko'rsatilgan oziq zanjirida ikkita o'ljani (qurban) aniqlash talab qilingan. Eng yaxshi natijani Bolgariyalik o'quvchilar 69% bajarishdi. Mamlakatlar orasida barcha ishtirokchilar topshiriqni 30% natija bilan ko'rsatdilar. Rossiya o'quvchilar 37% bajarishdi. O'zbekiston o'quvchilari esa STesting platformasida 12% natijani ko'rsatdi.

Topshiriqda ekotizimdag'i oziq zanjirlari tasvirlangan sxemani talqin qilish, ya'ni kognitiv soha bilimlarni qo'llash tekshiriladi. «Ekosistemalar» tushunchasi va munosabatlar 4-sinf kursida batafsil ko'rib chiqilmaydi. Shuning uchun, bu kabi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarimiz past natijani ko'rsatishgan.

4-sinf. Tabiiy fanlarning yuqori darajasini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Bir kuni tunda Alizod ko'chaga chiqib, daraxt va oy rasmini chizdi.

Taxminan 2 hafta o'tib uning akasi Ravshan ham aynan shu narsalar tasvirini qog'ozga tushirdi. Aka-uka o'z rasmlarini solishtirib, o'z rasmlaridagi oylarning bir-biridan farq qilishini ko'rib qolishdi.

**Alizod rasmi**



**Ravshan rasmi.**



Rasmlarning qaysi birida oyning tasviri to'g'ri chizilgan?

- A) Faqat Alizod chizgan rasmdagi oy shakli to'g'ri bo'lishi mumkin.
- B) Faqat Ravshan chizgan rasmdagi oy shakli to'g'ri bo'lishi mumkin.
- C) Har ikki oy tasviri ham to'g'ri bo'lishi mumkin. Javoblaringizni izohlang.  
Javoblaringizni izohlang.


MAZMUN SOHASI	YER HAQIDAGI FAN
Kognitiv soha	Qo'llash
Muvaffaqiyat darajasi:	Yuqori
O'zbekiston natijasi	12%
Rossiya natijasi	53%
Mamlakatlar natijasi	37%
Yuqori natija	61%
Quyi natija	4%

To'g'ri javob: Har ikki oy tasviri ham to'g'ri bo'lishi mumkin. Sababi, turli kunlarda oyning shakli o'zgaradi va boshqacha ko'rindan.

Eng yaxshi natijani Finlyandiyalik o'quvchilar 61% bajarishdi. Mamlakatlar orasida barcha ishtirokchi topshiriqlari o'rtacha foizi 37% natija ko'rsatdilar. Rossiya o'quvchilar 53% bajarishdi. O'zbekiston o'quvchilari esa STesting platformasida 12% ko'rsatdi.

O'quvchilarimiz maktablarda 2-sinfida "Tabiiy fanlar" darslarida oyni shakli va shaklini o'zgarishini muhokama qilishadi. O'quvchilar bilimlarni eslab qolishgan, biroq bilimlar yetarli emas.

Endi, 8-sinf mazmun sohasidagi topshiriqlarni natijasi dinamikasi bilan tanishib chiqamiz.



**33-расм. 8-синф мазмун соҳасидаги топшириқларни натижаси динамикаси.**

8-sinfo'quvchilarida Biologiya mazmun haqidagi hayotsikllari, ko'payishva irsiyat, ekosistemalar, organizmlar, hilma-xillik, moslanish va tabiiy tanlanish mavzulardagi topshiriqlariga, kimyo mazmun sohasidagi moddaning xossalari, kimyoviy o'zgarish mavzulardagi topshiriqlariga, fizika mazmun sohasidagi Energiya transformatsiyasi va uzatilishi, yorug'lik va tovush, elektr va magnitlanish, kuch va harakat mavzulariga oid, geografiya mazmun sohasida Yerdagi jarayonlar, sikllar va uning evolyusiyasi, Quyosh sistemasidagi Yer va koinot, Yer resurslari, ularidan foydalanish va saqlash mavzusiga oid topshiriqlarga javob bera olmagan.

MAZMUN SOHASI	BIOLOGIYA
Kognitiv soha	Qo'llash
Muvaffaqiyat darajasi:	Yuqori
O'zbekiston natijasi, %	58
Rossiya natijasi, %	65
Mamlakatlar natijasi, %	48
Yuqori natija, %	85
Quyi natija, %	20

### **8-sinf Tabiiy fanlarning yuqori darajasi.**

Ko'pgina yirik shaharlarda binolar tomiga bog' yaratilmoqda. Bog'lar havo tarkibidagi karbonat angidrid gazini kamaytiradi.

Nima uchun bog'larni ko'paytirish havoning tarkibidagi karbonat angidridni kamayishiga sabab bo'lishi mumkin


Javob namunasi: fotosintez bilan daraxtlar va o'simliklar havodan karbonat angidridni o'zlashtiradi, kislorod chiqariladi.


Topshiriqda fotosintezdagi asosiy jarayonni tasvirlash ya'ni yorug'lik, karbonat angidrid, suv va xlorofill zarur, glyukoza/shakar hosil bo'lishi va kislorod ajralib chiqishini tushunish tekshiriladi. Ushbu bilimlar 5-, 6-sinflarda biologiya kursida umumiyl tushunchalar beriladi. Biologiya fani bo'yicha o'quv dastur umumlashtirilgan tarqoq bloklar hisoblanadi. Sinfdan sinfga o'tganda bilimlari yangilanishi oldingi bilimlarni unutilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Eng yaxshi natijani Singapurlik o'quvchilar 85% bajarishdi. Mamlakatlar orasida barcha ishtirokchi topshiriqni o'rtacha foizi 48% natija ko'rsatdilar. Rossiya o'quvchilar 65% bajarishdi. O'zbekiston o'quvchilari esa STesting platformasida 52% ko'rsatdi.

Kognitiv o'lchov, baholanishi kerak bo'ladigan fikrlash jarayonlari natijalari 34-34(a)rasmlarda keltirilgan.

**34-расм. 4 синф. Табиий фанларнинг когнитив соҳаси натижалари.**





**34(a)-rasm. 8 sınıf. Tabiiy fanlarning kognitiv sohasi natijalari.**

Kognitiv o'lchov STesting platformasida TIMSS topshiriqlarini bajarishda amalga oshiriladigan aqliy jarayon bilishda 4- va 8-sinf o'quvchilari faktlar, munosabatlar va boshqalarni bilishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Quyidagi 33-jadvalda respublika bo'yicha 4- va 8-sinf maktab o'quvchilarining 6 oy davomida TIMSS tabiiy fanlar bo'yicha topishirqlarni bajarib olgan umumiy o'rtacha natijalari bilan tanishib chiqamiz.

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Toshkent viloyati	255
2	Jizzax	244
3	Qashqadaryo	237
4	Navoiy	236
5	Farg'ona	230
6	Samarqand	228
7	Xorazm	228
8	Sirdaryo	225
9	Qoraqalpog'iston	213
10	Namangan	212
11	Toshkent shahar	186
12	Surxondaryo	156
13	Andijon	148
14	Buxoro	140
O'rtacha baholash natijalari		211

### 33-jadval. TIMSS tabiiy fanlar natijalari

33-jadvaldan ko'rinish turibdi, 4- va 8-sinf maktab o'quvchilarining 6 oy davomida TIMSS tabiiy fanlardan topshirishlarni bajarib olgan respublikadagi umumiy o'rtacha natijasi 211 balni tashkil qiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hamma viloyatlar 100 ballik natijadan yuqori ko'rsatkichni qayd etganlar. Eng quyisi natijani Buxoro viloyatinining 4- va 8-sinf maktab o'quvchilari o'rtacha 140 ball bilan band qilganlar. Eng yuqori natija esa Toshkent viloyatiga tegishli bo'lib, 211 ball natijani ko'rsatgan. Faqatgina 4 ta (Buxoro, Andijon, Toshkent shahri va Surxondaryo) viloyatlar 200 balli natijani qayd etmagan. Qolgan barcha viloyatlarning natijalari 212-255 ballarni tashkil etadi.

Endi ushbu natijalarni har bir viloyatning tumanlari bo'yicha tahlil qilib chiqamiz. Quyida Toshkent viloyati tumanlarida TIMSS tabiiy fanlar natijalari bilan tanishib chiqamiz (34-jadval).

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Bo'stonliq	450
2	Oqqo'rg'on	370
3	Parkent	360
4	Qibray	340
5	Piskent	340
6	Bo'ka	290
7	Yuqorichirchiq	240
8	Zangiota	230
9	O'rtachirchiq	213
10	Yangiyo'l	200
11	Bekobod	162
12	Ohangaron	130
13	Chinoz	130
14	Quyichirchiq	120
O'rtacha baholash natijalari		255


**34-jadval. Toshkent viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari**

Toshkent viloyati 6 oy tadqiqot davomida respublika bo'yichay uqori ko'rsatkichlar qayd etayotgan va doim barqaror natijalarni ko'rsatib kelmoqda. Toshkent viloyati tumanlari orasida 100 baldan quyi natija qayd etilmaganini o'zi mazkur hududda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga dalolat bo'ladi. Faqatgina Quyichirchiq, Ohangaron, Chinoz, Bekobod tumanlari 120-162 ball natijani ko'rsatgan bo'lsalar. Qolgan barcha tumanlar 200 baldan yuqori ko'rsatkichlarni (200-450 ball) namoyon etganlar.

O'quvchilar faktlar, munosabatlар va tushunchalarni aniqlashda yoki bayon etishda, muayyan organizmlar, moddalar va jarayonlarning xususiyatlarini aniqlashda, ilmiy metodlar va jihozlardan maqsadga muvofiq foydalanishni aniqlashda ilmiy lug'at, belgilar, qisqartmalar, birliklar va shkalalarni bilish va ulardan tomonidan fundamental bilimlar maktab o'quvchilariga to'g'ri yetkazib berilganligini ko'rsatadi.

35-rasmda Jizzax viloyati maktab o'quvchilarining TIMSS xalqaro baholash dasturlari tabiiy fanlar topshiriqlarini STesting platformasida bajarib olgan natijalari tahlilini keltiramiz.

**35-rasm. Jizzax viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari, ball**



Jizzax viloyatining umumiyligi 244 ball. Faqatgina Zomin, Yangiobod, Arnasoy tumanlari 40-90 balli natijalarni qayd etgan bo'lsa, qolgan barcha tuman o'quvchilarining TIMSS tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha natijalari 214-380 ballni tashkil etadi. Jizzax viloyati maktab o'quvchilari TIMSS xalqaro baholash dasturlari tabiiy fanlar topshiriqlarini bajarib respublikadagi eng yaxshi natijalardan birini qayd etganini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Platformaning statistikasida Mirzacho'l tumani 10-sonli maktab 3-sinf

o'quvchilari Lapasov Muhammadyusuf, Kuchkarov Behruz, Jaliboyeva Pokiza topshiriqlarni bajarib 100% natija ko'rsatgan.

Viloyat o'quvchilari tabiiy fanlarga oid tushunchalarni bilishni namoyish etib, jarayon, sikel, munosabatlar yoki sistemani tasvirlashda yoki tabiiy fanlar bilan bog'lashda, muammolarga yechim topa olganlar hamda diagramma yoki boshqa modellardan foydalana olganlar.

Quyida Qashqadaryo viloyati maktab o'quvchilarining TIMSS tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha qayd etgan natijalarini tahlili bilan tanishib chiqamiz (35-jadval).

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Shahrisabz	318
2	Mirishkor	304
3	Qamashi	292
4	Nishon	288
5	Muborak	284
6	Yakkabog'	275
7	G'uzor	259
8	Kasbi	254
9	Koson	237
10	Dehqonobod	216
11	Kitob	211
12	Qarshi	204
13	Chiroqchi	146
14	Ko'kdala	-
Ortacha baholash natijalari		237

### **35--jadval. Qashqadaryo viloyati tumanlarida TIMSS tabiiy fanlar natijalari**

35-jadvaldan ko'rinish turganidek, Qashqadaryo viloyatining faqat Chiroqchi tumani maktab o'quvchilari topshiriqlarni bajarib umumiy ortacha 146 ball natijaga erishganlar. Qolgan barcha tumanlar 200 balidan yuqori (204-318 ball)

natijalarini ko'rsatgan. Ko'kdala tumani maktab o'quvchilarining topshiriqlarini bajarganligi to'g'risida ma'lumotlar platformada qayd etilmadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha maktab o'quvchilarining faolligi ma'lum sabablarga ko'ra may oyida pastga tushgan. Yakkabog' tumani 2-sonli maktabning 6-sinf o'quvchisi Donyorov Diyor TIMSS tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha barcha topshiriqlarga to'liq javob berib 100% natijani qayd etgan.

Viloyat o'quvchilari topshiriqlardagi jarayonlar va hodisalar o'rtaсидаги муносабатлarning тавсифларини та'riflay olganlar. O'ziga xos muayyan xususiyatlarga ega bo'lgan organizmlar, moddalar va jarayonlarga misollar keltirib faktlar yoki tushunchalarni tegishli misollar bilan bayon qila olganlar.

Quyida 36-jadvalda Navoiy viloyati tumanlarida TIMSS tabiiy fanlar natijalari tahlilini ko'rib chiqamiz.

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Konimex	380
2	Uchquduq	360
3	Nurota	310
4	Navbahor	200
5	Karmana	190
6	Qiziltepa	180
7	Xatirchi	170
8	Tomdi	90
O'rтача baholash natijalari		236


### 36-jadval. Navoiy viloyati tumanlarida TIMSS tabiiy fanlar natijalari

36-jadvaldan ko'rib turganimizdek, viloyat bo'yicha umumiy o'rтача natija 236 ball. Faqatgina Tomdi tumani maktab o'quvchilari 90 ball natijani qayd etgan bo'lsa, qolgan barcha tumanlar 100 baldan yuqori natjalarni qayd etganlar (170-380). Navoiy viloyatining maktab o'quvchilari ushbu yo'nalish bo'yicha

respublikada eng yaxshi natija ko'rsatgan hududlardan biridir.

Tahlil natijalariga ko'ra o'quvchilarda aynan tabiiy fanlarga oid asosiy ilmiy tushunchalarni bilishni ob'ektlar, organizmlar, moddalarda kuzatiladigan yoki taxmin qilinadigan xususiyat, xulq-atvor va ulardan foydalanish bilan bog'lay olish ko'nikmalari mazkur viloyat o'quvchilarida yaxshi shakllanganligi ko'rinish turibdi.

Navbatdagi 36-rasmda Farg'ona viloyati maktab o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha natijalar tahlili bilan tanishib chiqamiz.



**36-rasm. Farg'ona viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari, ball.**

Farg'ona viloyati maktab o'quvchilari ham yaxshi natijalardan birini qayd etgan. Ularning umumiy o'rtacha natijasi 230 ball. Viloyatning barcha tuman maktablari 100 baldan yuqori natijalarni qayd etishga erishgan. So'x tumani 120 ball natijani qayd etib eng quyi ko'rsatkichni namoyon etgan bo'lsa, Qo'qon shahri 450 ball bilan eng yaxshi natijani ko'rsatgan.

Viloyatdagi umumiy natijalar va topshiriqlarni oyma-oy bajarish dinamikasi o'sib bormoqda. Topshiriqlardagi organizmlar va moddalarning xususiyatlari, tuzilishi va funksiyalariga oid misollarni tushunganlar va ochiq javobli topshiriqlarda o'z fikrlarini to'g'ri bayon qila olganlar.

37-jadvalda Xorazm viloyatidagi natijalar tahlili bilan tanishib chiqamiz.

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Xazorasp	436
2	Xiva sh.	342
3	Xonqa	304
4	Tuproqqal'a	304
5	Qo'shko'pir	288
6	Gurlan	238
7	Yangibozor	212
8	Urganch	174
9	Xiva	156
10	Yangiariq	146
11	Bog'ot	126
12	Shovot	122
13	Urganch	112
O'rtacha baholash natijalari		228

**37-jadval. Xorazm viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari**

Xorazm viloyati tumanlaridagi o'quvchilar o'rtaida mazkur tadqiqot topshiriqlariga qiziqish uyg'onib borayotganini 6 oy davomida olib borilgan tadqiqotlarda ularning ko'rsatayotgan natijalarining o'sish dinamikasidan ham bilish mumkin. Viloyat bo'yicha umumiy natija 228 ball. Viloyat bo'yicha 100 balldan quyi natija ko'rsatgan tuman yo'q. Eng quyi natijani Urganch, Shovot, Bog'ot tumanlari 112-126 ball bilan qayd etganlar. Xazorasp tumani esa 436 ball bilan ushbu yo'naliish bo'yicha viloyatdagi eng yaxshi natijani ko'rsatgan.

Viloyat o'quvchilari topshiriqlardagi organizmlar guruhlari, moddalar yoki jarayonlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash yoki tavsiflash, alohida ob'ektlar, moddalar, organizmlar va jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlari asosida bir-biridan farqlash, tasniflash yoki saralashga oid topshiriqlarni yuqori darajada bajarganlar.

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Jalaquduq	320
2	Oltinko'l	250
3	Andijon	210
4	Buloqboshi	200
5	Ulug'nor	190
6	Bo'ston	180
7	Qo'rg'ontepa	170
8	Izboskan	148
9	Marhamat	144
10	Baliqchi	80
11	Xo'jaobod	68
12	Shahrixon	50
13	Paxtaobod	40
14	Asaka	28
O'rtacha baholash natijalari		148

**38-jadval. Andijon viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari**


Andijon viloyati maktab o'quvchilari natijalari respublika bo'yicha eng quyi ko'rsatkichlardan biridir. Viloyat bo'yicha umumiy 148 ball natijani qayd etganlar. Asaka, Paxtaobod, Shahrixon, Xo'jaobod, Bاليqchi tuman maktab o'quvchilari, 1000 balldan 100 balli natijani ham qayd eta olmaganlar. Agar foiz raqamlarda ifodalansa, 2-8% topshiriqlargagina javob bera olganlar. 92-98% savollarga javob bera olmaganlar. Ushbu ko'rsatkichlar, hozirda respublikadagi eng quyi natijalardan biri bo'lib turibdi. Buloqboshi, Andijon, Oltinko'l Jalaquduq tumanlari maktab o'quvchilari 200-320 ball natijalarni qayd etib viloyatdagi eng yaxshi ko'rsatkichlarni qayd etdilar. Viloyatning ba'zi maktab natijalari qoniqarli, biroq boshqa tumanlarda tabiiy fanlar qoniqarsiz ahvolda ekanligi har oyda umumiy o'rtacha baholash natijalarida namoyon bo'lgan. Maktab o'quvchilari ilmiy savollarga javob berish yoki farazlarni tekshirib ko'rish uchun tegishli tadqiqotlarni rejalashtirish; sabab-oqibat bog'lanishlar, o'zgaruvchi

kattaliklarni o'lchash va nazorat qilish nuqtai nazaridan yaxshi loyihalangan tadqiqotlarning xususiyatlarini tasvirlash yoki

aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelganlar.

Quyidagi 37-rasmda Samarqand viloyati maktab o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha olgan umumiy 6 oylik natijalari bilan tanishib chiqamiz.





**37-rasm. Samarqand viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari, ball**

Viloyat bo'yicha umumiy ishlangan testlar dinamikasi oxirgi oylarda sezilarli darajada tushgan bo'lib, hozirgi vaqtda Samarqand viloyatining ushbu yo'naliish bo'yicha umumiy o'rtacha natijasi 228 ball. Bulung'ur, Pastdarg'om, Paxtachi va Naripay tumanlarining 4- va 8-sinf muktab o'quvchilari tabiiy fanlardan 100 balni ham yig'a olmaganlar. Eng yaxshi natija Qo'shrabot tumani muktab o'quvchilariga tegishli bo'lib, ular 352 ball natijaga erishganlar. Qo'shrabot tumani tog'li hudud bo'lishiga qaramasdan, Samarqand shahri, Ishtixon, Kattaqo'rg'on kabi tuman muktab o'quvchilaridan yaxshiroq natijalarni ko'rsatganlar. Bu ko'rsatkichlar — "yaxshi natija qayd etish" har doim ham hududlarning geografik joylashuviga bog'liq emasligini ko'rsatadi.

Navbatda Namangan viloyati muktab o'quvchilarining TIMSS tabiiy fanlar bo'yicha erishgan natijalarini ko'rib chiqamiz (39-jadval).

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Mingbuloq	420
2	Pop	410
3	Namangan	310
4	Uchqo'rg'on	286
5	Kosonsoy	222
6	Uychi	196
7	Norin	176
8	Chust	160
9	Chortoq	148
10	Yangiqo'rg'on	140
11	To'raqo'rg'on	108
12	Davlatobod	90
13	Yangi Namangan	86
O'rtacha baholash natijalari		212

**39--jadval. Namangan viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari**

39-jadvaldagagi statistik raqamlariga ko'ra, Namangan viloyatining maktab o'quvchilarining umumiy o'rtacha natijalari 212 ball. Faqat, Yangi Namangan va Davlatobod tuman maktab o'quvchilari 100 balli natjalarni qayd eta olmaganlar. Pop va Mingbuloq tumanlari maktab o'quvchilari 410-420 ball natija bilan viloyatdagagi eng yaxshi natjalarni qayd etgan.

Namangan viloyatidagi umumiy natijani respublika miqyosiga solishtirganda o'rtacha natijani qayd etgan deb aytish mumkin. Buning sababi, topshiriqlardagi izohlarga baho berishda, muqobil jarayonlar va moddalar haqida qaror qabul qilishda afzallik va kamchiliklarni baholashni tushunganlar, faraz yoki savollarga ta'luqli bo'lgan tegishli xulosalar chiqarishda qiyngalganlar.


**Quyidagi 40-jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida TIMSS tabiiy fanlar bo'yicha natijalari keltirilgan.**

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Kegeyli	390
2	Nukus	320
3	Amudarë	308
4	Beruniy	290
5	Qonliko'l	262
6	Taxtako'pir	252
7	To'rtko'l	248
8	Chimboy	204
9	Ellikqal'a	188
10	Shumanay	182
11	Mo'ynoq	136
12	Qorao'zak	130
13	Xo'jayli	108
14	Bo'zatov	64
15	Taxiatosh	24
Ortacha baholash natijalari		213

**40-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari**

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha TIMSS tabiiy fanlar natijalari 213 balni tashkil etadi. Taxiatosh va Bo'zatov tuman o'quvchilari quyi natijalarni (24-64 ball) qayd etgan bo'lsalar, Amudaryo, Nukus va Kegeyli tuman 4- va 8-sinf o'quvchilari 308-390 ball bilan eng yuqori natijalarni qayd etdilar. STesting platformasining statistik ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktab o'qituvchilari va o'quvchilari 6 oy davomida doimiy ravishda o'z faoliyklari bilan xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ishlariga sitqi dildan kirishganlar. Buni Beruniy tumanining test ishlashlar dinamikasi va ularning natijalari oxirgi oylarda sezilarli darajada ko'tarilganligidan ham bilsa bo'ladi.

Quyida 38-rasmda Toshkent shahrida 4- va 8-sinf maktab o'quvchilarining plafotrmada TIMSS tabiiy fanlar bo'yicha ko'rsatgan natijalari bilan tanishib chiqamiz.



**38-rasm. Toshkent shahar tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari, ball.**

Toshkent shahri tumanlari tadqiqotda stabil natijalar ko'rsatmoqda (38- rasm).

Toshkent shahrining TIMSS tabiiy fanlar bo'yicha ko'rsatgan natijalari umumiy o'rtacha 186 ball. Bektemir va Mirzo Ulug'bek tumanlari maktab o'quvchilari platformada bajargan topshiriqlar natijasi 100 balni ham tashkil etmagan. Eng yaxshi natijani Yunusobod tuman maktab o'quvchilari 340 ball bilan qayd etganlar.

O'quvchilar tomonidan ishlangan topshiriqlar tahlil qilinganda o'quvchilarda tadqiqot o'tkazish orqali javob berish mumkin bo'lgan savollarni shakllantirish va tadqiqot rejasi haqidagi ma'lumot yordamida tadqiqot natijalarini bashorat (prognoz) qilish, tajriba, kuzatish yoki ilmiy ma'lumotlarni bilish va tushunishga asoslanib, tekshiriladigan taxminlarni shakllantirish, biologikob'ekt yoki fizik jismlarga ta'sir ettirilgandayuzaga

keladigan o'zgarishlarni bashorat (prognoz) qilish uchun dalil va konseptual

tushunchalardan foydalanishda ma'lumotlarni topa olish, ma'lumotlar asosida xulosa qila olish, matn mazmuni va shakli haqida mulohaza yuritish ko'nikmalari yaxshi rivojlanganini ko'rish mumkin.

Quyida Surxondaryo viloyati maktab o'quvchilari tomonidan bajarilgan TIMSS tabiiy fanlar topshiriqlarining natijalari keltiriladi (41-jadval).

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Sariosiyo	380
2	Termiz sh.	234
3	Angor	230
4	Jarqo'rg'on	190
5	Oltinsoy	180
6	Muzrabot	180
7	Boysun	150
8	Uzun	140
9	Sho'rchi	110
10	Termiz	108
11	Denov	95
12	Qiziriq	90
13	Qumqo'rg'on	82
14	Bandixon	60
15	Sherobod	50
O'rtacha baholash natijalari		156

**41-jadval. Surxondaryo viloyati tumanlarida TIMSS tabiiy fanlar natijalari**

41-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Surxondaryo viloyati maktab o'quvchilari ushbu tadqiqot yo'nalishi bo'yicha barqaror natijalarni qayd etib kelmoqdalar. Viloyat bo'yicha umumiylashtirilgan baholash natijalari 156 ballni tashkil etadi. Sherobod, Bandixon, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Denov tumanlaridagi natijalar 100 balga yetmagan, shuning uchun viloyatdagi umumiylashtirilgan statistik

ko'rsatkichlar tushib ketgan. Qolgan barcha tumanlardagi natijalar (108-380 ball) oyma-oy oshib bormoqda. Sariosiyo tumani maktab o'quvchilari bajargan topshiriq natijalari 380 balni qayd etgan. Bu natija viloyatdagi eng yaxshi ko'rsatkichdir.

Surxondaryo viloyati o'quvchilari kognitiv soha bilishga oid topshiriqlarni bajara olmaganlar.

Quyida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish ishlari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turgan Sirdaryo viloyati maktab o'quvchilari tomonidan bajarilgan TIMSS tabiiy fanlar topshiriqlarining natijalari bilan tanishib chiqamiz (42-jadval).

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Mirzaobod	370
2	Sayxunobod	314
3	Yangier sh.	310
4	Yangier sh.	266
5	Oqoltin	266
6	Guliston	264
7	Oqoltin	260
8	Sayxunobod	250
9	Mirzaobod	220
10	Guliston	216
11	Sirdaryo	168
12	Boyovut	160
13	Xovos	158
14	Sardoba	156
15	Shirin	132
O'rtacha baholash natijalari		225

**42-jadval. Sirdaryo viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari.**

Yuqorida aytib o'tilganidek, viloyat o'quvchilari xalqaro baholash dasturlari topshiriqlarini bajarishda o'zlarini bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda shakllantirib bormoqdalar. Buni platformadagi viloyat bo'yicha natijalarning o'sib borish dinamikasidan ham kuzatish mumkin. Viloyat bo'yicha maktab o'quvchilarining TIMSS tabiiy fanlar topshiriqlarining natijalari o'rtacha 225 ball. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joyizki, viloyat bo'yicha bironqa ham 100 balldan quyi natija qayd etgan tuman yo'q. Shirin tumani maktab o'quvchilari 132 ball bilan nisbatan quyi natjalarni qayd etgan bo'lalar, Yangier shahar, Sayxunobod, Mirzaobod tuman o'quvchilari 310-370 ball natija bilan yaxshi natjalarni ko'rsatganlar.

Viloyat o'quvchilarida topshiriqlardagi ma'lumot yordamida ilmiy ma'lumotlarni ibilishvatushunishga asoslanganiko'nikmalarishakllanganligini kuzatish mumkin.

Quyida 43-jadvalda Buxoro viloyati maktab o'quvchilarining TIMSS tabiiy fanlar topshiriqlarining natijalari keltirilgan.

T/R	TUMANLAR	BAHOLASH NATIJALARI, BALL
1	Jondor	345
2	Romitan	256
3	Shofirkon	214
4	Buxoro	180
5	G'ijduvon	156
6	Qorovulbozor	140
7	Kogon	118
8	Olot	104
9	Qorako'l	48
10	Vobkent	46
11	Peshku	40
O'rtacha baholash natijalari		140

**43-jadval. Buxoro viloyati tumanlarida  
TIMSS tabiiy fanlar natijalari.**

43-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyati maktab o'quvchilari Buxoro viloyati 4- va 8- sinf maktab o'quvchilari tomonidan bajarilgan TIMSS tabiiy fanlar topshiriqlarining natijalari o'rtacha 140 ball. Viloyat maktab o'quvchilari akademik bilimlari bilan boshqa viloyatlardan ajralib tursalarda, xalqaro baholash dasturlarida o'z bilimlarini namoyon eta olmaganlar. Ushbu natijalar maktab o'quvchilarining o'zlashtirgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalari shakllanmaganligidan dalolat beradi. Peshku, Vobkent, Qorako'l tuman o'quvchilari, o'rtacha 50 ball natijani ham qayd etmaganlar. Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, ushbu tumanlardagi maktab o'quvchilari xalqaro baholash dasturlari topshiriqlarini 5% savollarigagina javob bera olganlar. 95% savollarga javob topa olmaganlar. Shofirkon, Romitan, Jondor tuman o'quvchilarining natijalari viloyat bo'yicha eng yaxshi natijalar bo'lib ular, 214-345 ball ko'rsatkichni qayd etganlar.

Viloyat o'qituvchilari tomonidan o'quvchilariga olgan bilimlarini qo'llash va mulohaza yuritishga oid kognitiv darajalarga e'tibor qaratilmaydi.



## 2.2. TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI BO‘YICHA O‘QUVCHI SHAXSIDA SHAKLLANTIRILADIGAN TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK TOPSHIRIQLARI

Kognitiv o‘lchov TIMSS uchun ishlab chiqilgan topshiriqlarni bajarishda amalga oshiriladigan aqliy jarayonlarni tasvirlaydigan uchta sohaga bo‘linadi: bilish, qo’llash, mulohaza yuritish.

### Bilish

Ushbu sohadagi test topshiriqlari o‘quvchilarning faktlar, munosabatlar, jarayonlar, tushunchalar va jihozlar to‘g’risidagi bilimlarini baholaydi. Aniq va keng qamrovli faktlarga asoslangan bilimlar o‘quvchilarga ilmiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan yanada murakkab bilish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Yodga olish / Aytib berish	Faktlar, munosabatlar va tushunchalarni aniqlash yoki bayon etish; muayyan organizmlar, moddalar va jarayonlarning xususiyatlarini aniqlash; ilmiy metodlar va jihozlardan maqsadga muvofiq foydalanishni aniqlash; ilmiy lug‘at, belgilar, qisqartmalar, birliklar va shkalalarni bilish va ulardan foydalanish.
Tasvirlash	Organizmlar va moddalarning xususiyatlari, tuzilishi va funksiyalari hamda organizmlar, moddalar, jarayonlar va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarning tavsiflarini ta’riflash yoki aniqlash.
Misollar keltirish	O‘ziga xos muayyan xususiyatlarga ega bo‘lgan organizmlar, moddalar va jarayonlarga misollar keltirish yoki aniqlash; faktlar yoki tushunchalarni tegishli misollar bilan bayon qilish.

# BILISH SOHASIDAGI TEST TOPSHIRIQLARI

ISSIQLIK VA HARORAT

S4\_01

**Qaysi ikki jism o'zidan yorug'lik chiqaradi?**

- |                   |                     |
|-------------------|---------------------|
| A. sham va Oy     | B. Oy va ko'zgu     |
| C. Quyosh va sham | D. ko'zgu va Quyosh |

To'g'ri javob: C

## HARAKAT VA KUCH

S4\_02

Rasmda yelkanli kema tasvirlangan.

**Qaysi kuch kemaning harakatlanishiga sabab bo'ladi?**

- A. Yerning tortish kuchi      B. Shamol kuchi  
C. Ishqalanish kuchi      D. Maqnit kuchi



To'g'ri javob: B

S4 03

**Biror jismni qo'lingizdan tushirib yuborsangiz,**

uning Yerga tushishiga nima sabab bo'ladi?

- |                        |                           |
|------------------------|---------------------------|
| A. Magnit kuchi        | B. Gravitatsiya           |
| C. Havoning qarshiliqi | D. Oo'lingizning itarishi |

## To'q'ri iavob: B

MODDALARNING XUSUSIYATLARI VA KLASSEFIKATSIIYASI

S4 04

Suv, muz va bug' – bularning barchasi har xil haroratqa ega.

**Eng sovuqdan eng issiqliqchasi qaysi tartibda joylashadi?**

- A. Muz, suv, bug'  
B. Muz, bug', suv  
C. Bug', muz, suv  
D. Bug', suv, muz

## To'g'ri javob: A

**S4\_05**

Bularning qaysi biri aralashma?

- A. Tuzli suv                      B. Shakar  
C. Suv bug'i                      D. Tuz

To'g'ri javob: A

**EKOSISTEMALAR**

**S4\_06**

Yirtqich, bu – boshqa jonivor bilan oziqlanadigan hayvon.

Bulardan qaysi biri yirtqich?

- A. Kiyik                              B. Bo'ri  
C. Sigir                              D. Echki

To'g'ri javob: B

**S4\_07**

O'simliklar Quyosh energiyasidan to'g'ridan-to'gri foydalanadi.


Ular Quyosh energiyasidan nima maqsadda foydalanadi?

- A. Oziq hosil qilish.                      B. Urug'larni tarqatish.  
C. Tuproq unumдорligini oshirish.  
D. Hasharotlarning zarar yetkazishiga yo'l qo'ymaslik.

To'g'ri javob: A

**TIRIK ORGANIZMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI  
VA ULARDA KECHADIGAN HAYOTIY JARAYONLAR**

**S4\_8**



Quyidagi rasmda  
suv havzasi tasvirlangan.

Quyida maxsus ajratilgan joyga ushbu rasmda tasvirlangan jonli va jonsiz tabiatga oid bo'lgan uchtadan jism nomini yozing.

Jonli tabiat	Jonsiz tabiat
1.	1.
2.	2.
3.	3.

To'g'ri javob:

Jonli tabiat	Jonsiz tabiat		
Baliq qurbaqa toshbaqa ninachi (hasharot, kapalak, pashsha)	nilufar guli (o'simlik, gulli o'simlik, suv o'simligi)  daraxt o't mollyuskalar	Quyosh bulutlar suv xarsang tosh kichik toshlar	qum tuproq loy havo

## ORGANIZMLARNING HAYOT SIKLLARI, KO'PAYISH VA IRSIYAT

### S4\_9

Ushbu organizmlardan qaysi birining yosh formalari tashqi ko'rinishidan voyaga yetgan formalariga o'xshash bo'ladi?

- A. Kuya kapalagi
- B. Odam
- C. Qurbaqa
- D. Kapalak

To'g'ri javob: B

## QUYOSH SISTEMASIDAGI YER

### S4\_10

Yer o'z o'qi atrofida qancha vaqtda aylanib chiqadi?

- A. Har 12 soatda bir marta
- B. Har 24 soatda bir marta
- C. Har oyda bir marta
- D. Har yili bir marta

To'g'ri javob: B

### **Qo'llash**

Ushbu sohadagi test topshiriqlarida o'quvchilardan faktlar, munosabatlar, jarayonlar, tushunchalar, jihozlar va metodlar to'g'risidagi bilimlarni qo'llashlari so'raladi.

Taqqoslash/ Qarshi qo'yish/ Tasniflash	Organizmlar guruhlari, moddalar yoki jarayonlar o'rtaсидаги о'xшашлик ва farqlarni aniqlash yoki tavsiflash; alohida obyektlar, moddalar, organizmlar va jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlari asosida bir-biridan farqlash, tasniflash yoki saralash.
Bog'lash	Tabiiy fanlarga oid asosiy ilmiy tushunchalarni bilishni obyektlar, organizmlar, moddalarda kuzatiladigan yoki taxmin qilinadigan xususiyat, xulq-atvor yoki ulardan foydalanish bilan bog'lash.
Modellardan foydalanish	Tabiiy fanlarga oid tushunchalarni bilishni namoyish etish, jarayon, sikl, munosabatlar yoki sistemani tasvirlash yoki tabiiy fanlar bilan bog'lash, muammolarga yechim topish uchun diagramma yoki boshqa modeldan foydalanish.
Ma'lumotni talqin qilish	Matn, jadval, rasm va grafikdagi ma'lumotlarni izohlash uchun tabiiy fanlarga oid tushunchalarni bilishdan foydalanish.
Tushuntirish	Tabiiy fanlarga oid tushuncha yoki qonuniyatdan foydalanib, kuzatish yoki tabiiy hodisani izohlash yoki izohni aniqlash.

## QO'LLASH

### ISSIQLIK VA HARORAT

#### S4\_11

Aziza sokin ko'lning narigi tarafidan Quyosh chiqishini tomosha qilmoqda.

Quyida tasvirlanganidek, u Quyoshni osmonda va ko'lda ko'rди.

Nima uchun Aziza Quyoshni ko'lda ko'rди?

- A. Quyosh nuri ko'lning o'sha qismini isitadi.
- B. Osmon Quyosh nurini ko'l bo'ylab yoyadi.
- C. Quyosh nuri ko'l suvida aks etadi.
- D. Bulutlar Quyosh nurini ko'lda aks ettiradi.




To'g'ri javob: C

#### S4\_12

Quyida ko'rsatilgandek, Gamet batareya, lampochka va ba'zi simlarni ulaydi.

Lampochka yonadimi?



(Bitta katakchani belgilang)

- Ha
- Yo'q

Javobingizni izohlang.

To'g'ri javob: Yo'q, zanjir to'liq bo'lmaganligi sababli lampochka yonmaydi

degan izoh keltirilgan bo'lsa, masalan:

Yo'q – Simlar orasida ochiq joy bor.

Yo'q – O'ngdagi ikkita sim ulanishi kerak.

Yo'q – Kalit yopilmaganligi sababli lampochka yonmaydi.

Yo'q – Zanjir to'liq emas.

Yo'q – Barchasi ulanmagan.

Ha, agar simlar bir-biriga ulansa, lampochka yonadi  
degan izoh keltirilgan bo'lsa.

**S4\_13**

**Issiq, qaynatilgan tuxum sovuq suvli idishga solindi.**

**Suv va tuxumning harorati qanday o'zgarishlarga uchraydi?**

- A. Suv soviydi va tuxum iliydi.
- B. Suv iliydi va tuxum soviydi.
- C. Suvning harorati o'shandayligicha qoladi va tuxum soviydi.
- D. Suv ham, tuxum ham iliydi.


**To'g'ri javob: B**

**S4\_14**


**To'rtta har xil stakandagi suvning haroratini o'lchashda**

**to'rtta har xil termometrdan foydalanildi.**


**Qaysi termometrning ko'rsatkichi eng issiq suvgaga tegishlidir?**




A



B



C



D

**To'g'ri javob: B**

**S4\_15**

**Projektor sahnadagi qizga qaratilgan.**

**Qaysi chiziq bo'ylab soyani ko'rish mumkin?**

- A. A
- B. B
- C. C
- D. D




**To'g'ri javob: B**

MODDALARNING XUSUSIYATLARI VA KLASSEFIKATSIVASI

**S4\_16**

Stakandagi suvgaga bir bo'lak muz solindi.

Qaysi rasmida muzning suvdagi holati eng to'g'ri tasvirlangan?



To'g'ri javob: B

**S4\_17**

Suv muzlash, erish va qaynash davomida bir holatdan boshqa holatga o'tadi.

Bularning qaysi biri sodir bo'lishi uchun issiqlik zarur?


- A. Faqat qaynash
- B. Faqat muzlash
- C. Erish va muzlash, ammo qaynash emas
- D. Erish va qaynash, ammo muzlash emas

To'g'ri javob: D

EKOSISTEMALAR

**S4\_18**

Quyidagi rasmida oziq zanjiri tasvirlangan.



**Qaysi javobda yirtqich-o'lja munosabati to'g'ri berilgan?**

- A. Baliq (yirtqich) – tyulen (o'lja)
- B. Yashil suvo'tlari (yirtqich) – mayda qisqichbaqasimonlar (o'lja)
- C. Baliq (yirtqich) – mayda qisqichbaqasimonlar (o'lja)
- D. Tyulen (yirtqich) – kasatka (o'lja)

**To'g'ri javob: C**

TIRIK ORGANIZMLARNING O'ZIGA XOSLIGI VA  
ULARDA BORADIGAN HAYOTIY JARAYONLAR

**S4\_19**

**Qushlar, ko'rshapalaklar va kapalaklar qanday umumiylilikka ega?**

- A. patlar
- B. sochlar
- C. ichki skelet
- D. qanotlar

**To'g'ri javob: D**

**S4\_20**

**Ba'zi o'simliklar, masalan, olma meva hosil qiladi.**

**Mevaning vazifasi nima?**

- A. Urug'larni himoya qilish
- B. Urug'lar uchun ozuqa bo'lib xizmat qilish
- C. Urug'larning tarqalishiga to'sqinlik qilish
- D. Urug' unib chiqishi uchun suvni g'amlash

**To'g'ri javob: A**


### **MULOHAZA YURITISH**

Ushbu sohadagi test topshiriqlari orqali o'quvchilardan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va o'zlarining tushunchalarini yangi vaziyatlarga tadqiq etishlari talab qilinadi. "Mulohaza yuritish" sohasidagi test topshiriqlari "Qo'llash" sohasidan farq qilib, noma'lum yoki yanada murakkab kontekstlarni o'z ichiga oladi. Bunday savollarga javob berishda bir nechta yondashuv yoki strategiya bo'lishi mumkin. Shuningdek, mulohaza yuritish ilmiy farazlarni ilgari surish va ilmiy tadqiqotlarni loyihalashni ham nazarda tutadi.

Tahlil qilish	Ilmiy muammoning tarkibiy qismlarini aniqlash, savollarga javob berish va muammolarni hal qilishda tegishli ma'lumotlar, tushunchalar, munosabatlar va namunalardan foydalanish.
Sintez qilish	Bir qator turli omillar yoki bir-biriga bog'liq tushunchalarni ko'rib chiqishni talab qiladigan savollarga javob berish.
Savollarni shakllantirish / Faraz qilish / bashorat qilish (prognoz)	Tadqiqot o'tkazish orqali javob berish mumkin bo'lgan savollarni shakllantirish va tadqiqot rejasi haqidagi ma'lumot yordamida tadqiqotnajalarini bashorat (prognoz) qilish; tajriba, kuzatishva yoki ilmiy ma'lumotlarni bilish va tushunishga asoslanib, tekshiriladigan taxminlarni shakllantirish; biologic obyekt yoki fizik jismlarga ta'sir ettirilganda yuzaga keladigan o'zgarishlarni bashorat (prognoz) qilish uchun dalil va kontseptual tushunchalardan foydalanish.
Tadqiqotlarni loyihalash	Ilmiy savollarga javob berish yoki farazlarni tekshirib ko'rish uchun tegishli tadqiqotlarni rejalashtirish; sabab-oqibat bog'lanishlar, o'zgaruvchi kattaliklarni o'lchash va nazorat qilish nuqtai nazaridan yaxshi loyihalangan tadqiqotlarning xususiyatlarini tasvirlash yoki aniqlash.
Baholash	Muhoqil izohlarga baho berish; muqobil jarayonlar va moddalar haqida qaror qabul qilishda afzallik va kamchiliklarni baholash; xulosalarni asoslash uchun ma'lumotlarning yetarligi nuqtai nazaridan tadqiqot natijalarini baholash.
Xulosalar chiqarish	Kuzatishlar, dalil va / yoki tabiiy fanlarga oid tushunchalarni tushunish asosida to'g'ri xulosalar chiqarish; faraz yoki savollarga taalluqli bo'lgan tegishli xulosalar chiqarish hamda sabab va oqibatlarni tushunganlikni namoyish etish.
Umumlashtirish	Tajriba yoki berilgan shartlardan tashqariga chiqadigan umumiyl xulosalar chiqarish; xulosalarni yangi vaziyatlarda qo'llash.
Asoslash	Izohlarning asosli ekani, muammolarning yechimlari va tadqiqotlardan kelib chiqadigan xulosalarni tasdiqlashda dalillar va tabiiy fanlarga oid tushunchalardan foydalanish.

### S8\_21

Adiba fotosintez tezligiga yorug'lik intensivligi va karbonat angidrid konsentratsiyasining ta'sirini o'rganmoqda. U ikkita bir xil o'simlikda turli yorug'lik intensivligida fotosintez tezligini o'lchadi. O'simliklar yopiq idishlarga joylashtirildi. Bitta idishda karbonat angidridning dastlabki konsentratsiyasi **0,40%** edi. Boshqa idishda karbonat angidridning dastlabki konsentratsiyasi **0,03%** edi. Quyida ko'rsatilganidek, u o'z natijalarini grafikda aks ettirdi.



Grafikka qarang. Karnonat angidrid konsentratsiyasining ortishi fotosintez tezligiga ta'sir ko'rsatadimi? (Bitta katakchani belgilang).

- Ha
- Yo'q

Javobingizni izohlang.

---

To'g'ri javob:

**Ha**, fotosintez uchun zarur bo'ladigan (kerak bo'ladigan, jarayonda foydalaniladigan) karbonat angidrid qayd etilgan javob. Izohda grafikka ishora qilingan bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin, masalan:

*Fotosintez uchun karbonat angidrid zarur. Karbonat angidrid konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, fotosintez shunchalik tez amalga oshadi.*

*Fotosintez amalga oshishi uchun karbonat angidrid kerak bo'ladi.*

*Ha, yorug'lik intensivligi 3 da teng bo'lsa, 0,40% da fotosintez tezligi 1,2 va 0,03%*

da 0,3 bo'ladi. Chunki fotosintez amalga oshishi uchun karbonat angidrid kerak bo'ladi.

Fotosintez uchun o'simliklarga karbonat angidrid va quyosh nuri zarur, karbonat angidrid fotosintez hamda o'sish tezligiga ta'sir qiladi.

**Ha,** faqat grafikka ishora qiluvchi izoh (aniq yoki noaniq), masalan:

*Ha, yorug'lik intensivligi 3 bo'lsa, 0,40% da fotosintez tezligi 1,2 va 0,03% da 0,3 bo'ladi.*

Karbonat angidrid konsentratsiyasi oshsa, fotosintez tezligi ortadi.

O'simliklar fotosintezni tezroq amalga oshiradi.

### MODDANING TARKIBI VA KLASSIFIKATSIYASI

#### S8\_22

Quyidagi jadvalda besh xil modda (A, B, C, D va E)ning fizik xossalari keltirilgan.

Ushbu moddalardan ikkitasi metallardir.

	A MODDA	B MODDA	C MODDA	D MODDA	E MODDA
Xona haroratida fizik xossasi (20 °C)	qattiq	qattiq	suyuq	suyuq	gaz
Tashqi tomondan ko'rinishi/rangi	kulrang yaltiroq	oq	kumushrang	rangsiz	rangsiz
Elektr tokini o'tkazadi	ha	yo'q	ha	ha	yo'q

Moddalar (A, B, C, D, E)dan ikkita metallni aniqlang.

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

To'g'ri javob: A va C moddalar qayd etilgan.

## 2.3. TIMSS TADQIQOTLARI NATIJALARI XULOSALARI

STesting platformada TIMSS xalqaro baholash dasturlarining matematika fanidan olib borilgan tadqiqotlarida respublika bo'yicha 1 000 000 ga yaqin 4- va 8-sinf maktab o'quvchilari ishtirok etdilar. Platformaning statistik ma'lumotlari natijalarga ko'ra, respublika bo'yicha matematika fanidan umumiyl natija 203,7 ballni tashkil etadi. Tumanlar bo'yicha natijalarda, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on va Davlatobod tumanlari umumiyl 10 ball ko'rsatkich qayd etib respublikadagi eng past natijani ko'rsatgan bo'lsa, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani o'quvchilari 670 ball natijani ko'rsatib, eng yuqori natijani qayd etdilar. Ushbu natijani 2019 yil o'tkazilgan TIMSS tadqiqotlari natijalariga solishtirilsa, tadqiqotda Qatar davlati 8-sinf o'quvchilari matematika fani 457 ball bilan eng quiyi natijalarni qayd etgan bo'lsa, Italiya davlati 4-sinf o'quvchilari matematika fani bo'yicha 515 ball bilan reytingni yakunlab bergen.

4- va 8-sinf maktabs o'quvchilari standart fundamental masalalarni qiyinchiliklarsiz bajarganlar hamda, algebrlik ifodalar ustida amallarni bajarish so'ralgan topshiriqlarning aksariyatini to'g'ri bajarishga erishganlar, ammo geometrik xarakterdagi masalalarni yechishda qiyinchilikka duch kelgan, hamda amaliy xarakterga ega topshiriqlarning matematik modelini tuza olmaganlar.

Tadqiqotning tabiiy fan bo'yicha respublikadagi 4- va 8- sinf o'quvchilarining umumiyl natijasi 211 balni tashkil etadi. Buxoro viloyatining 4- va 8-sinf maktabs o'quvchilari umumiyl o'tacha 140 ball bilan respublikadagi eng quiyi natijani qayd etdilar. Toshkent viloyati o'quvchilari esa, umumiyl o'tacha 255 ball bilan eng yaxshi natijani ko'rsatdilar. Tumanlar bo'yicha eng quiyi natijani Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani hamda, QQR Taxiatosh tumani o'quvchilari umumiyl o'rtacha 24 ball bilan ko'rsatdilar. Eng yaxshi natija esa, Farg'ona viloyatining Qo'qon hamda Toshkent

viloyatining Bo'stonliq tumani o'quvchilari 450 ball bilan qayd etdilar. Ushbu natijani xalqaro natijalarga solishtirilsa, 2019 yil o'tkazilgan TIMSS tadqiqotlariida Oman davlati 8-sinf o'quvchilari tabiiy fan bo'yicha 457 ball bilan eng quyi natijani ko'rsatgan bo'lsa, Kipr davlati 4-sinf o'quvchilari 511 ball bilan ro'yxatni oxirini band etgan.

Test topshiriqlari orqali o'quvchilar ilmiy muammoning tarkibiy qismlarini aniqlash, savollarga javob berish va muammolarni hal qilishda tegishli ma'lumotlar, tushunchalar, munosabatlar va namunalardan foydalana olishda muammolarga duch kelganlar. O'quvchilarining tabiiy fandan olgan bilimlarini qo'llash va mulohaza yuritishga oid kognitiv darajalari xali yaxshi shakllanmagan.



## **XULOSA**

---

STesting elektron platformasida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida 2 500 000 ga yaqin maktab o'quvchilari xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etdilar.

Tadqiqotlarda ishtirok etgan maktab o'quvchilarining egallagan ko'nikmalarini baholashda PISA tadqiqotlarida baholash darajalarida (foizlarda) ifodalangan bo'lsa, TIMSS va PIRLS tadqiqotlarida xalqaro 1000 balli shkala bo'yicha baholandilar.

PISA tadqiqotining o'qish savodxonligi bo'yicha respublikadagi natija 8,8% baholash natijalarini qayd etgan. Bu natija xalqaro 1000 balli shkala bo'yicha 88 ballga to'g'ri keladi. Solishtirish uchun, PISA-2018 tadqiqotlarida Filippin davlati 440 ball bilan eng oxirgi natijani qayd etgan.

PISA tadqiqotining tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishi bo'yicha respublikadagi o'rtacha umumiy baholash natijalari 12% ni tashkil etdi. Ushbu natijani xalqaro 1000 balli shkala bo'yicha solishtirilsa, 120 balni tashkil etadi. PISA-2018 tadqiqotlarida Dominika respublikasi 336 ball bilan eng oxirgi natijani qayd etgan.

PISA tadqiqotining matematik savodxonlik bo'yicha respublikadagi umumiy o'rtacha natija 14,4% ni tashkil etadi. Bu natija xalqaro 1000 balli shkala bo'yicha 144 balga to'g'ri keladi. Agar PISA-2018 tadqiqotlari natijalariga solishtirilsa, ushbu tadqiqotda Dominika respublikasi 325 ball bilan eng quyi natijani qayd etgan.

TIMSS tadqiqotlari bo'yicha platformaning statistik ma'lumotlari natjalarga ko'ra, respublika bo'yicha matematika fanidan umumiy natija 203,7

balni tashkil etadi. Ushbu natijani 2019 yil o'tkazilgan TIMSS tadqiqotlari natijalariga solishtirilsa, tadqiqotda Qatar davlati 8-sinf o'quvchilari matematika fani bo'yicha 457 ball bilan eng quyi natjalarni qayd etgan bo'lsa, Italiya davlati 4-sinf o'quvchilari matematika fani bo'yicha 515 ball bilan reytingni yakunlab bergen.

TIMSS tadqiqotining tabiiy fanlar bo'yicha respublikadagi 4- va 8- sinf o'quvchilarining umumiyligi natijasi 211 balni tashkil etadi. Ushbu natijani xalqaro natijalarga solishtirilsa, 2019 yil o'tkazilgan TIMSS tadqiqotlarida Oman davlati 8-sinf o'quvchilari tabiiy fan bo'yicha 457 ball bilan eng quyi natijani ko'rsatgan bo'lsa, Kipr davlati 4-sinf o'quvchilari 511 ball bilan ro'yxatni oxirini band etgan.

STesting pltaformasida PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlarida 500 000 dan ortiq o'quvchilar ishtirok etdilar. O'qib tushunish bo'yicha mamlakatimizda Namangan viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari 244 ball bilan nisbatan eng yaxshi natijani ko'rsatgan bo'lsa, Andijon viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari 40 ball bilan nisbatan eng quyi natijani qayd etganlar. Ushbu natijani xalqaro natijalarga solishtirilsa, 2016 yil o'tkazilgan PIRLS tadqiqotlarida Janubiy Afrika Respublikasining boshlang'ich sinf o'quvchilari 320 ball bilan eng quyi o'rinda ro'yxatni yakunlab bergenlar.

Ushbu keltirilgan va solishtirilgan natijalar bilan respublikadagi maktab o'quvchilarining xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ishlari juda sust ketyapdi deb xulosa qilishdan yiroqmiz. Natijalarning past chiqqaniga bir nechta sabablarni keltirish mumkin:

birinchidan, mamlakatimiz o'quvchilarida xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlarga nisbatan ko'nikmalari endi-endi shakllanib bormoqda;

ikkinchidan, natijalari past chiqqan ba'zi bir hududlarda o'quvchilar xuddi o'qituvchilar tomonidan majburan test ishlashga undalgandek taassurot

uyg'otdi, sababi, aksariyat o'quvchilar topshiriq matnini o'qimasdan turli belgilar yoki topshiriq javobiga umuman aloqasi bo'limgan matnlarni kiritganlar. Shuning hisobiga, hududlarda umumiyligi baholash natijalari tushib ketgan. Aslida, o'quvchi sal diqqat bilan topshiriq matni bilan tanishib chiqsa, javobni to'g'ri kiritadi.

Natijasi yaxshi chiqqan hududlarga ham tegishli bo'lgan "salbiy" xulosamizni bayon etib o'tsak. Ba'zi hududlarda, maktab o'qituvchilarining o'zi reyting "yaxshi" chiqishi uchun o'quvchilarning platformaga kirish uchun mo'ljallangan login va parolidan o'quvchilarning shaxsiy kabinetiga kirib ularning tetslarini ishlab qo'ygan

vaziyatlar ham uchradi. Test topshiriqlarini juda ham tez 3 minut ichida bajarib qo'ygan. Va butun sinf o'quvchilarining natijalari bir xil javobga ega ekanligidan ushbu xulosaga kelindi.

Sirdaryo, Toshkent viloyati, QQR, Navoiy va Jizzax viloyati maktablarida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Buni o'quvchilarning oyma-oy o'sib borayotgan natijalar dinamikasidan bilish mumkin.

Har ikki tadqiqotning umumiy natijalariga ko'ra bir-biriga yaqin natijalar qayd etilgan hududlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Navoiy viloyati o'quvchilari JICA tadqiqotiga ko'ra, 43,3% o'zlashtirish natijalari bilan nisbatan eng yaxshi natijani qayd etgan bo'lsa, TIMSS tadqiqotlarida ham ushbu viloyat o'quvchilari 29,1% baholash natijalari bilan eng yaxshi natijalardan birini ko'rsatganligiga guvoh bo'lamic. Toshkent viloyati o'quvchilari, har ikki tadqiqot natijalariga ko'ra ham bir xil 30% natijalarni qayd etgan. Respublika bo'yicha JICA tadqiqoti bo'yicha natijalar 34% ni tashkil etsa, TIMSS tadqiqoti matematika fani bo'yicha baholash natijalari 20,3% ni tashkil qiladi.



## **TAKLIFLAR**

---

Xalqaro baholash dasturlari topshiriqlari asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlillari o'quvchilarda XXI asr ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa, quyidagi tizimli ishlarni amalga oshirishni taklif qilinadi:

- fan o'qituvchilari uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan maqsadli malakasini oshirish kurslarini tashkil etish;
- innovatsion o'qitish usullarini joriy qilish;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- o'quvchilarda mulohazayuritish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda xulosa chiqarish, baholash va vaziyatga nisbatan o'z fikrini bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- darsliklarga xalqaro baholash dasturlariga o'xshash topshiriqlar majmuini singdirish;
- xalqaro baholash dasturlari topshiriqlariga oid qo'llanmalarni ishlab chiqish va maktablarga yetkazish;
- tayanch maktablarda tashkil etiladigan o'quvlar sifatini yaxshilash;
- o'quvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;

- darslarda mavzularga mos xalqaro baholash tadqiqotlari doirasidagi topshiriqlardan foydalanishni yulga qo'yish va tavsiyalar ishlab chiqish (sinflar va mavzular kesimida);
- o'quvchilarda egallagan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish;
- mакtab, tuman, viloyat va respublika miqyosida turli tanlovlар tashkil etish va rag'batlantirish ishlarini yo'lga qo'yish;
- sinfdan tashqari mashg'ulot (to'garak)lar rejasi va mazmuniga xalqaro baholash tadqiqotlari topshiriqlarini singdirish;
- STesting elektron platformasidagi statistik natijalarni oyma-oy tahlil qilib borish va bo'shlialarni aniqlash;
- aniqlangan bo'shliallar yuzasidan o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish;
- test va ta'lim natijalari past bo'lgan maktablarni qo'llab-quvvatlash;
- yuqori natijalarga erishgan maktablarni barqaror rivojlantirish strategiyasini qo'llab-quvvatlash.
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish orqali o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash.

## FOYDALANILGAN, TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLAR:

1. Shlyayxer Andreas. Obrazovanie mirovogo urovnya. Kak vystroit shkolnuyu sistemu XXI veka? /Andreas Shlyayxer; [per. s angl. I.S.Denisenko, I.Yu.Oblachno]; predislovie S.S.Kravsova. – Moskva: Izdatelstvo «Natsionalnoe obrazovanie», 2019. – 336 s – (Antologiya obrazovaniya). ISBN 978-92-64-300002.
2. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Goh, S. & Cotter, K. (Eds.). (2016). TIMSS–2015 entsiklopediyasi: Matematik va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim siyosati va o'quv rejasi. Boston kolleji, Xalqaro o'quv markazi veb-saytidan olingan
3. TIMSS & PIRLS: <http://timssandpirls.bc.edu/timss2015/encyclopedia/>
4. TIMSS 2011 User Guide for the International Database. Released items. Science – Fourth Grade. Edited by Pierre Foy, Alka Arora, and Gabrielle M.Stanco. Publishers:TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
5. TIMSS 2011 User Guide for the International Database. Released items. Science – Eighth Grade. Edited by Pierre Foy, Alka Arora, and Gabrielle M.Stanco. Publishers:TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

6. Сборник тестовых заданий TIMSS для учащихся 4-х и 8-х классов. АО «Информационно-аналитический центр»: Астана, 2016 -537 с.
7. Ergasheva M. TIMSS dasturi topshiriqlari asosida fundamental savodxonlikni shakllantirish. Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali. 2022-yil, 3-son, 19-20 b.
8. A.B.Radjiev, A.A.Ismailov, J.R.Narziev, X.P.Ahmedov, G.O.Tog'aeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent, 2019-yil, 62 bet.
9. Центр оценки качества образования ИСРО РАО вебсайт: <http://centeroko.ru>
10. Global Innovation Index 2018 .Report. <https://www.globalinnovationindex.org>.
11. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development, OECD) вебсайт: [www.oecd.org/edu/pisa](http://www.oecd.org/edu/pisa)
12. <https://stesting.uz>
13. <http://skiv.instrao.ru/bank-zadaniy/estestvennaya-gramotnost>

**O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIK  
MONITORINGI VA TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH  
METODIKASI**

**Muallif:**

M. Ergasheva

**Taqrizchilar:**

Sh.Abdullaeva

G.Otamurodov

**Sahifalovchi dizayner**

Sh. Olimov

Bosishga ruxsat etildi: 28.04.2023 yil.

Bichimi 60x84 1/8.

montserrat garniturasi.

Kegli 11. Shartli bosma tabog'i 19,06.

Buyurtma № 000000

Adadi 200 nusxa.

“ColorPack”

bosmaxonasida chop etildi

Toshkent sh., Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi, 1a



Shamshod Olimov  
+998 99 108-21-61



[www.avloniy.uz](http://www.avloniy.uz)